

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

“Til va adabiyot ta'limi ” kafedrası

(“Ilg'or tajriba pedagogik ommaga!”)

**“IZOHLI LUG'ATLARDAN FOYDALANISH ORQALI
O'QUVCHILARDA MUMTOZ ADABIY MATNLAR
BILAN ISHLASH MALAKALARINI
SHAKLLANTIRISH”**

**(Paxtakor tumanidagi 6-sonli umumiy o`rta ta'lim maktabi ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi Abduraim Namazovning ilg'or ish tajribasi asosida
yaratilgan uslubiy tavsiyanoma)**

Mazkur tavsiyanoma institut Ilmiy kengashining 2015-yil 25-martdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Tuzuvchi :

A. Abdullayev - “Til va adabiyot ta’limi ” kafedrası o’qituvchisi

Taqrizchilar:

Q.Siddiqov - “Til va adabiyot ta’limi ” kafedrası katta o’qituvchisi:

R.Toshpo’latova - Jizzax shahar XTMFMT va TEBga qarashli 10-sonli umumta’lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Mazkur metodik tavsiyanomada Paxtakor tumanidagi 6-umumiy o’rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi Namazov Abduraimning ilg’or ish tajribasidan namunalar keltirilgan.

Unda adabiyot fanida mumtoz adabiy matnlar bilan ishlashda izohli lug’atlardan foydalanish, mumtoz adabiyot namunalarini o’rganish bo’yicha o’ziga xos individual uslubiy tavsiyalar o’z aksini topgan.

Tavsiyanomadan ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari o’z pedagogik faoliyatlarida ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin.



KIRISH

Abduraim Namazov o'rta maktabda o'qib yurgan kezlarda adabiyotga havas qo'ydi. Adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirishda ustozlaridan Nurilla Vohidov, Barno Qo`qonova, Munavvar Martaboyeva hamda Shafoat To'rayevalarning xizmatlari katta bo'ldi. Shu qiziqish va havas uni 1985-yil Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti fakultetiga boshladi. Oliygohta ustozlardan o'rganish, o'qish bilimga chanqoq Abduraim Namazovning o'z faniga yanada mehrini orttirdi. Oliygohni 1990-yil muvaffaqiyatli tamomladi. Oliygohni tamomlab, ish faoliyatini Paxtakor tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabida ona tili va adabiyot fanidan dars berish bilan boshladi. Yoshlarni Vatanga muhabbat, insonlarga sadoqat va do'stlik ruhida komil inson qilib tarbiyalashda barcha bilim va tajribasini ishga solib, qizg'in ijodiy-pedagogik faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Hozirda muallimning shogirdlari ishlab chiqarishning turli sohalarida, fan cho'qqilarini egallashda, yoshlarga bilim berishda astoydil mehnat qilmoqdalar.

Abduraim Namazovning ona tili va adabiyot o'quv xonasi mavjud. O'quv xonasi zamonaviy ko'rgazmalar bilan jihozlangan. O'qituvchi ko'p marotaba malaka oshirishlarda bo'lib, o'z bilim va tajribalarini orttirib kelmoqda.

Tuman va viloyat miqyosida o'tkaziladigan o'quv-seminarlar, seminar-trening va an'anaviy avgust kengashlarida faol ishtirok etib kelmoqda. "Maktabda insho va uni o'tkazish", "Milliy maktab deganda siz nimani tushunasiz?", "Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar va ularni tashkil etish" mavzularida o'z ish tajribasidan kelib chiqqan holda ma'ruzalari bilan qatnashib, tajribasini oshirib bormoqda.

Har yili o'tkaziladigan "Bilimlar bellashuvi" va fan olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda

Respublika va viloyat matbuotlarida ko'pgina ilmiy-metodik maqolalari bilan qatnashib keladi.

Har yili Respublikamizda o'tkaziladigan o'zbek tilining doimiy anjumanlarida ishtirok etib, maktabda va aholi o'rtasida o'zbek tilining ravnaqi uchun kurashib kelmoqda.

Abduraim Namazov sinfdan tashqari ishlar masalasiga alohida e'tibor beradi. Adabiyot to'garagi, ona tilidan "Savodxon" to'garagi tashkil etib, o'quvchilarning ona tili va adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirib bormoqda. Yozuv tanlovlari o'tkazish, grammatik ertaliklar uyushtirish, "Do'stona muloqot tilga bog'liq" nomli haftaliklar tashkil etish ishlarini muntazam amalga oshirib bormoqda.

"Bor ajoyib qadrdonim, shirin so'zli bilim konim", "So'z – inson qudratining sarkardasi", "So'z qudratiga ishonaman", "So'z tarkibi" nomli grammatik kompozitsiyalari, "O'zbek mumtoz adabiyotining ikki buyuk namoyandasi" nomli adabiy-badiiy kompozitsiya va "Ifodali o'qish" tanlovlari o'tkazib, o'quvchilarning savodxonligini yaxshilash va fikrlash qobiliyatini o'stirishga alohida e'tibor berib kelmoqda.

O'quvchilarning nutqiy-kommunikativ savodxonligini oshirish maqsadida bolalar o'rtasida, darsda va dars mashg'ulotlaridan keyin o'zaro muloqotlariga alohida e'tiborini qaratadi. Maktabda adabiyot dars mashg'ulotlarida izohli lug'at bilan ishlash taxta yozuvini tashkil etib, bu borada muntazam ish yuritib bormoqda.

Abduraim Namazov tinmay izlanishda. Izlanishlari samarasi o'laroq, yoshlarga hozirgi zamon talablari asosida bilim berishda o'zining butun bilimi va tajribasini ishga solib kelmoqda.

O'qituvchining "Izohli lug'atlardan foydalanish orqali o'quvchilarda mumtoz adabiy matnlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish" mavzusidagi ish tajribasi JVXTXQTMOI "Til va adabiyot ta'limi" kafedrasidan o'rganilib,

uning ochiq darslari, adabiy – badiiy tadbirlari kuzatildi va ish tajribasini viloyatda ommalashtirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Ushbu metodik tavsiyada Abduraim Namazovning dars ishlanmalari va uslubiy tavsiyalaridan namunalar berilgan. O'ylaymizki, yosh o'qituvchilar mazkur metodik tavsiyadan ijodiy yondashgan holda amaliy faoliyatlarida foydalanadilar.

Adabiyot
7-sinf III chorak
Darsning texnologik xaritasi

Mavzu	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan “Mehr va Suhayl” hikoyatini o’rganish.
Maqsad va vazifalar	“Mehr va Suhayl” hikoyatini o’rganish. - asar matni bilan tanishish, tahlil qilishga o’rgatish; - o’quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ma’naviy dunyolarini kengaytirish; - o’quvchilar qalbida ezgu insoniy fazilatlarni uyg’otish. - o’quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg’otish, ularda mavzu asosida bilim va ko’nikmalarni shakllantirish, kengaytirish; - mavzuga oid materiallarni, berilgan topshiriqlarni o’quvchilar tomonidan yakka va guruh tarzida, slaydlar, ko’rsatma qurollar vositasida qay darajada o’zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O’quv materialli mazmuni	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan “ Mehr va Suhayl” hikoyati, Mehr, Suhayl, Navdarshoh kabi qahramonlar tabiati va ruhiyatidagi yaxshi, ezgu sifatlar, to’g’rilik, mardlik, irodalilik, pahlavonlik hamda uning aksi bo’lgan zulm-zo’rlik, shafqatsizliklarning inson hayotiga ta’siri va natijasi
O’quv jara yonini tashkil etish texno logiyasi	Shakl: interfaol mashg’ulot: suhbat-ma’ruza, yakka va guruhlarda ishlash. Metod: “Aqliy hujum”, matn bilan ishlash, savol-javob, fikr almashuvi Vosita: darslik, slaydlar, Navoiy asarlari lug’ati, kartochkalar, videoprojektor. Usul: ifodali o’qish, bahs-munozara. Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat mashqlari. Baholash: rag’batlantirish, o’z-o’zini baholash, ball tizimi.
Kutiladigan natijalar	O’qituvchi: mavzuni barcha o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishiga erishadi O’quvchilar faolligini oshiradi. O’quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg’otadi. O’quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o’rganish va uni xotirada saqlashga, boshqalarga yetkazish , savol berish va savollarga javob berishga o’rgatadi. O’quvchi: yangi bilimlarni egallaydi. Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidan “ Mehr va Suhayl” hikoyatini o’rganish orqali o’quvchida ezgulik, iroda, jasorat kabi ahloqiy fazilatlar shakllanadi, ma’naviy barkamollik tushunchasi kengayadi.
Kelgusi	

rejalar	O'qituvchi: navbatdagi suhbat uchun mashg'ulot materiallarini qaytadan ko'rib chiqish, mashg'ulotni tahlil qilish, mavzuni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, mashg'ulot metodikasi va texnikasiga o'zgartirish kiritish, pedagogik texnologiya usullarini darsda tatbiq etishni takomillashtirish, pedagogik mahoratini oshirish, keyingi mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish. O'quvchi: "Mehr va Suhayl" asarini yana bir marotaba o'qib, asar mazmuni yuzasidan taassurot yozish.
----------------	--

Mashg'ulot bosqichlari.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vahti
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashuv. Mashg'ulotning borishi haqida tushuncha berish. O'quvchilardan bugungi adabiy nashrlar bo'yicha yangiliklarni olish.	og'zaki muloqot	3 daqiqa
2-bosqich	O'qituvchining slaydlar asosida kirish so'zi. Mashg'ulot mavzusi va mazmuni bo'yicha suhbat o'tkazish.	"Aqliy hujum", slaydlar ishtirokida	8 daqiqa
3-bosqich Mavzu bayoni	O'qituvchining Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonidan "Mehr va Suhayl" hikoyatining bosh g'oyasi, asosiy ma'no-mazmuni to'g'risidagi suhbat-ma'ruzasi (slaydlar hamda savollar asosida), matn bilan ishlash, guruhlarda mustaqil ishni tashkil etish.	savol-javob, matn bilan ishlash, guruhlar taqdimoti	20 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlari, tushunchalarini guruhlardagi faoliyatlari orqali aniqlash, bahs-munozara o'tkazish	Klaster, bahs-munozara	8 daqiqa
5-bosqich Mashg'ulot yakuni mustaqil ish uchun topshiriq	"Mehr va Suhayl" asari bo'yicha ifodali o'qish, mashg'ulotni yakunlash, uyga mustaqil ish uchun topshiriq berish	fikr almashuvi	6 daqiqa

Darsning borishi

Tashkiliy qism. O'qituvchi guruh a'zolari bilan salomlashib, adabiyot sohasidagi yangiliklar bo'yicha qisqa savol – javob o'tkazgach, bugungi mashg'ulot interfaol

ta'limga asoslangan suhbat, bahs- munozara va amaliy ishlar, guruh va jamoa shaklida o'tishi haqida ma'lumot beradi.

Darsning borishi:

1. Uy vazifasini so'rash va mustahkamlash.
2. Yangi mavzu bayoni. «Sab'ai sayyor» dostoni haqida ma'lumot.
3. Hikoyat matni ustida ishlash.
4. Lug'at ustida ishlash. Qiyin so'zlar izohi.
5. Guruhlarda ishlash. Fikrlar himoyasi.
6. Savol va topshiriqlar asjsida ishlash. Mustahkamlash.
7. Uyga vazifa.

Dasturda mazkur mavzuga ajratilgan 4 soat davomida «Sab'ai sayyor» dostonidan olingan kattagina parcha o'qib, tahlil qilinadi. «Sab'ai sayyor» dostonini o'rganish uchun ajratilgan dastlabki ikki soatda hikoya matni ustida ishlab, uchinchi soatda tahlil qilinib, to'rtinchi soatda bahs-munozara o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Dostondan olingan parcha o'qituvchi tomonidan o'ziga muvofiq tarzda uchga bo'linib, har bir bo'lak matn uchun alohida savol va topshiriqlar ishlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi har bir bo'limni o'rgatishga bir soatdan vaqt sarflaydi va oxirgi soatda dostonning umumiy matni tahlili hamda hazrati Navoiy ijodi bo'yicha o'rgatilganlar yuzasidan munozara tashkil etiladi.

«Sab'ai sayyor» dostoni haqida ma'lumot beriladi. Bunda Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni «Xamsa»ning to'rtinchi dostoni ekanligi, u o'ziga xos usulda, hikoya ichida hikoya tarzida bitilganligi, mazkur hikoya shunday hikoyalardan biri ekanligi kabi jihatlariga e'tibor qaratadi. Qiyin so'zlar izohlanib, ma'nosi anglatiladi.

Matn ustida ishlash. Matnning birinchi soatga mo'ljallangan qismi o'qituvchi tomonidan qiroat bilan o'qiladi, so'ngra o'quvchilarga o'qitiladi, tabdil (o'girish) yordamida matn ma'nosi tushuntiriladi.

Bunda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish kutilgan pedagogik samarani berishi mumkin.

«Sab'ai sayyor»dan olingan parcha g'oyat qiziqarli syujetga egaligi bilan ajralib turadi. Ammo o'qituvchi asarni o'tish jarayonida syujetgagina e'tibor berib qolmasdan, uning badiiy jozibasi va estetik ta'sirchanligi e'tibordan chetda qolib ketmasligi kerak. Buning uchun asardagi eng qaltis vaziyatlarda har bir qahramon holati qanday ifodalanganligiga o'quvchilar diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq. Bu jihatdan Jobir bilan Suhaylning kemaadagi to'qnashuvi, ayniqsa, Mehr tomonidan ozod qilingan Suhaylning qaroqchiga duch kelganda aytgan so'zlari har ikki obrazning tabiatini ko'rsatishi jihatidan g'oyat muhimdir:

Dedikim: "Pahlavonlig' ermas ul
Kim, kishi makr birla urg'ay yo'l.

Teshib el kemasini hiyla bila,
G'arq etib suvga bu vasila bila.

Qolmag'on chog'da kimsaning joni,
Tutubon band aylagay oni.

Sen agar zohir etting itlikni,
Men senga ko'rguzay yigitlikni".

Savol topshiriqlar bilan ishlash:

1. Suhaylning Jobir bilan suhbatida uning qaysi fazilatlari namoyon bo'ladi?
 2. Jobirning «moli xarom» maqsadi bilan yashashini siz qanday tushundingiz?
- Navoiy shunday insonlarni qanday ataydi?
3. Navdarshohning shaxsiy fazilatlari sizda qanday taassurot qoldirdi?
 4. Mehrning fazilatlarini tavsiflang.
 5. "Mehr" so'zi qizning nomini anglatish bilan birga yana qanday ma'noni bildiradi?
 6. «Sab'ai sayyor» dostoni voqealarini tasvirlashda yozuvchining mahorati nimada deb o'ylaysiz?
 7. Suhaylning qaysi sifatlari sizga yoqdi?
 8. Jobirning qaysi harakatlarini ma'qullaysiz?
 9. Hikoyadagi Mehr timsoliga baho bering.
 10. Hikoyaning qaysi jihatlarini sizda yaxshi taassurot uyg'otdi?
- Shu tariqa doston tahlil etilgach, hikoya qahramonlari tavsiflanadi.

Aqliy hujum: «Yaxshi inson deganda kimni tushunasiz?».

O'quvchilar fikrlari doskaga yozib boriladi va umumlashtiriladi. Dostondagi qahramonlarning yaxshi-yomon sifatlari tavsiflanadi.

Matnning davomi o'qitilib, asar qahramonlarining sifatlariga e'tibor berib borish talab etiladi.

Guruhlarda ishlash: Muhokama va munozara uchun guruhlariga quyidagi topshiriqni berish mumkin.

Suhayl va Jobir timsollariga qiyosiy tavsif bering.

Suhaylning tabiatiga xos eng ezgu jihatlar, Jobirga xos yaxshi - yomon xislatlarning qay tariqa namoyon bo'lganligiga bolalar diqqati tortilishi lozim. Shunda ham quruq ta'kid yo'li bilan emas, balki so'zlar zamiridagi ma'noni ilg'ash yo'lidan borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikrlar himoyasi: Guruh sardorlari timsollar bo'yicha o'z guruhlarini fikrini himoya qiladilar.

Javoblar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

Jobir o'z nazarida jasur, topqir, qo'rqmas va epchil kimsa. Ammo uning qilmishlari Suhayl nazari bilan idrok etilganda, o'zgacha qiymat kasb etadi.

Suhayl – nomus kishisi. Shuning uchun ham u oshiq'-ma'shuqlarning barcha ko'rguliklarida o'zini aybdor hisoblaydi. Bu hol asarda yigitning zindondan Mehr tufayli ozod etilgach, u bilan so'zlashgandagi holati tasvirida juda ta'sirli aks etadi:

Sidq bildi yaqin aning so'zini,
Sa'y ila asray olmadi o'zini.

Ohidin o't dimog'ig'a tushti,
Dilbarining ayog'ia tushti.

Qildi faryodu bordi andin hush,
Mehrnin hayrat ayladi madhush.

Suhayl to'g'riso'z odam bo'lgani bois Mehrning izohlariga ishonishi va hozirgi holatidan uyalib, xushdan ketishi dostonda juda ta'sirli ifodasini topgan.

Mashg'ulotlarda asarning boshqa qismlari yuqoridagidek tahlil qilinadi, mustahkamlanadi, bahs-munozara o'tkaziladi.

Mustahkamlashni Klaster, slaydlar va quyidagi savollardan foydalangan holda tashkil etish mumkin.

1. «Mehr va Suhayl» hikoyasi timsollariga tavsif bering.
2. Asar qahramonlari Mehr, Suhayl va Jobir ismlarining ular xarakteriga, amallariga va ma'naviy qiyofalariga mosligini sharhlang.
3. Nima deb o'ylaysiz, Jobir hammadan ko'proq kimga jabr qildi?
4. Navdarshoh timsoliga tavsif bering.
5. "Sen agar zohir etding itlikni, Men senga ko'rguzay yigitlikni" misralaridagi "itlik" va "yigitlik" so'zlarini sharhlang.
6. Asar haqidagi taassurotlar bayoni.

Uyga vazifa: "Menga yoqqan qahramon" mavzusida taassurot yozish.





Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish

“Pedagogik texnologiya - ta'lim-tarbiya jarayonini yangicha qurish, loyihalash, tashkil etish pedagogik jarayonlarni yangi usul va uslublarida mahorat, san'at bilan boshqarish orqali ta'limning mazmunini yangilash, qiziqarli, faol tarzda uyushtirishdir. Pedagogik texnologiyaning maqsadi o'quvchilarga pedagogik jarayonlarda yangicha yondashgan holda zamonaviy bilim asoslarini berish, kompyuter va axborot texnologiyalarini yosh avlodga o'rgatish, pedagogik jarayonlar mazmunini yangicha faol, qiziqarli usul va uslublarda boshqarish orqali yosh avlodni kamol toptirishdan iboratdir.”

Darsning mavzusi: Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi.

Darsning maqsadi:

ta'limiy – o'quvchilarga Abdulla Qahhor haqida dastlabki ma'lumotlarni berish, adibning hayoti va ijodiy faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, tushuncha hosil qilish;

tarbiyaviy-o'quvchilarni vatanparvarlik, ajdodlar rihiga hurmat va o'zaro mehr- oqibat asosida tarbiyalash;

rivojlantiruvchi – o'quvchilarning adib haqida olgan bilimini rivojlantirish, hayoti va ijodiga doir tasavvurini shakllantirish.

Darsning jihozi: darslik, ko`rgazmali qurollar, qo`shimcha adabiyotlar.

Darsning usuli: Suhbat

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

Ustoz: Assalomu alaykum aziz o`quvchilarim,

Adabiyotni sevuvchi bilimga chanqoqlarim.

O`quvchilar: Vaalaykum assalom aziz ustoz – muallim,

Faningizni sevmiz, bizga berasiz ta`lim.

Ustoz: Hozir o`zbek xalq maqolalaridan aytib joyimizni egallaymiz!

(O`quvchilar xalq maqollarini aytib joylashishadi.)

Ustoz: keling, ko`ngil bo`lsin to`q, bugun darsda kimlar yo`q?

(Navbatchi aniqlanib, davomat belgilanadi.)



Ma'naviyat daqiqasi:

“Biz buyuk daholar avlodimiz!”

-Aziz o`quvchilar, biz O`zbekiston deb atalmish jannatmakon yurt
yashaymiz, fahr bilan “o`zbekmiz” deymiz. O`zbek xalqi o`zining boy
o`tmishiga, o`z tarixiga, buyuk ajdodlariga egadir. Dunyo miqyosiga chiqib Amur

Temur, Alisher Navoiy, Farobiy, Abu Ali Ibn Sino deb aytsangiz taniydigan ajdodlarning avlodimiz.

(Keyin esa ularga quyidagi savollarni berish orqali bilimini charxlayman:)

-Tinchlik va ozodlik uchun kurashgan ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?

-Ularning qanday ezgulik yo`lidagi ishlarini bilasiz?

-Fan olamida buyuk o`zgarishlar qilgan, ilm- fan rivojiga hissa qo`shgan allomalardan kimlarni bilasiz?

-Allomalarimiz nomi qo`yilgan shahar, mahalla, maktab nomlarini bilasizmi?

(O`quvchilar bilan suhbat o`tkazgach, faol qatnashgan o`quvchilarga rangli jeton berib taqdirlayman.)

Sinf 4 guruhga bo`linadi va har bir guruh o`ziga hos nomlanadi:

1 – “Bilimdonlar”;

2 – “Zukkolar”;

3 – “Topqirlar”;

4 – “Donolar”.

II. O`tilgan mavzuni so`rash:

Uy vazifasi etib “Tanobchilar” hajvijasini yodlab kelish berilgan edi. Shu vazifa yuzasidan “Men hushyorman” mashqi asosida har bir guruh hajviyadan to`rt misra aytadi, keyingi guruh davom ettiradi. Shu orqali she`r barcha o`quvchilardan so`raladi. To`xtab qolgan o`quvchiga “jarima” berib keyingi guruhga o`tiladi. Eng yaxshi aytgan guruh “rag`bat” bilan taqdirlanadi.

O`tgan mavzu Muqimiyning “Tanobchilar” asari matni ustida ishlash va hajviy asar haqida tushunchaga ega bo`lish edi. Ushbu mavzu bo`yicha “O`yla, izla, top!” mashqi orqali guruhlariga beshtadan savol beriladi va vaqt belgilanadi.

“Bilimdonlar” uchun:

1. Muqimiy qachon va qayerda tug`ilgan?

2. Adl so`zining ma`nosini izohlang.

3. Misraning ma`nosini sharxlang:

4. O`n ikki oyda keladur bir tanob,

5. O`zgalarga rohatu menga azob.

6. Qanday hajviy asarlarni bilasiz?

7. Sifatlash san`ati nima?

“Zukkolar” uchun:

1. Muqimiyning ilk devoni qachon nashr etilgan?

2. Nifoq so`zining ma`nosi?

3. Misrani shrxlang:

4. Bizga bobo hazrati shoxlig`mazor,

5. Muxlisimiz mardumi ahli diyor.

6. Muqimiyning qaysi asarlarini bilasiz?

7. O`xshatish san`ati nima?

“Topqirlar” uchun:

1. Muqimiy qanday oilada tarbiya ko`rgan?

2. Suxan so`zining ma`nosi?

3. Misrani sharxlang:

4. Xizr otamlarg`a birodar erur,

5. Chimlig` azizlar menga dodar erur.

6. Hajviy asar qanday bo`ladi?

7. Mubolag`a san`ati nima?

“Donolar” uchun:

1. Muqimiy qancha umr ko`rdi?

2. Er hubbi so`zining ma`nosi?

3. Misrani sharxlang:

4. Tag`i bular yaxshiyu bizlar yomon,

5. El tamizidin hazar et, alamon.

6. Hajviy asarlarda nimalar muhim?

7. Qarshilantirish san`ati nima?

Guruhlar savollarga belgilangan vaqt davomida javob beradilar va javobi topilmagan savol muhokama qilinib, boshqa guruhlar javobiga qarab jeton bilan taqdirlanadi.

III.Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzu adib haqidagi quyidagi she`r bilan boshlanadi:

Yo`llar ortimizda qolar edilar,
Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.
Nega ular cheksiz, desam, dedilar:
Bu yerdan o`tgandi Abdulla Qahhor.
Yo`llar ortimizda qolar edilar,
Cho`qqilar qolardi yuksak va qator.
Nega ular yuksak, desam, dedilar:
Bu yerdan ham o`tdi Abdulla Qahhor!

Abdulla Qahhor haqida nimalarni bilasiz, u haqda eshitganmisiz kabi savollar bilan ularning tushunchalarini o`rganaman. Xattaxta yonidagi stolga Abdulla Qahhor asarlari, ijodi asosida tayyorlangan buklet, ijodkor haqida yozilgan kitoblar va adibning turli suratlari qo`yilgan. Ularni o`quvchilarga birma-bir tanishtirib tasavvur hosil qilaman.

“O`zbek milliy nasrining zabardast vakillaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo`qon shahridan uncha uzoq bo`lmagan Asht qishlog`ida dunyoga kelgan. Uning otasi usta Abduqahhor temirchilik bilan shug`ullangan. Adib ilk tahsilini ko`chib yurgan o`sha qishloqlaridagi eski maktabdan oladi. Qo`qonga muqim o`rnashishgach, maktab-internatda, o`qituvchilar tayyorlanadigan texnikumda o`qiydi. Keyinroq Toshkentga borib “Qizil O`zbekiston” (hozirgi “O`zbekiston ovozi”) gazetasida ishlaydi. Shu vaqt oralig`ida O`rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi O`zbekiston Milliy Universiteti) ning pedagogika fakultetida o`qiydi. Bu vaqtlarda “Mushtum” jurnalida uning “Norin shilpiq”, “Sarimsoq” kabi nomlar bilan maqola, felyeton va hajviyalari chiqadi.

Adib 1968-yil 25- mayda vafot etdi va Toshkentdagi Chig`atoy qabristoniga dafn qilindi. U yashab o`tgan maskan “Abdulla Qahhor uy – muzeyi” ga aylantirilgan. Adib “O`zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni va “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlariga munosib deb topilgan.

(Har bir quruhga krossvord berib, topish uchun vaqt belgilayman.)

6

V. Darsni yakunlash:

VI. Uy vazifasi:

Abdulla Qahhorning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni o'zlashtirish va daftarda aks ettirish, "Bemor" hikoyasi bilan tanishish.

VII. O'quvchilar bilimini baholash:

Jetonlar jamlanib, g'olib guruh aniqlanadi va darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.



“BEMOR” HIKOYASINI EVRISTIK METOD ASOSIDA O’RGANISH

Bu metod yunoncha “**izlayman, topaman**” degan ma’noni anglatadigan “heurisko” so’zidan olingan bo’lib, u mahsuldor ijodiy fikrlash jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi. Ta’limning mustaqil fikrlashga undashda qo’l keladigan evristik metodi o’quvchining oldiga yo’naltiruvchi masalalar qo’yish, ularni tekshirish va hal etish, aks savollar vositasida o’qitish usuli hisoblanadi. Evristik

metodidan foydalanganda o`qituvchi o`quv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini to`liq qo`llashi mumkin. Faqat uning tarkibi qo`shimcha bilim olishga yo`naltiradigan savollar bilan to`ldiriladi. Mazkur metod tahlili shuni ko`rsatadiki, u suhbat metodida bo`lgan barcha usullarning birgalikda yo`nalishini talab qiladi. Bunda savol- topshiriqlarning mantiqi va vaqt masalasida bir – oz tafovut bo`ladi.” Evristik metodda yetakchilik qiladigan savollar qo`zg`atuvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday asosdagi suhbat tizimi topshiriqni bajarish, jarayonni kuzatish, savollarga javob berish, ma`lumot olish, xulosa chiqarish va xulosalarni taqqoslash kabi yo`naltiruvchi ko`rsatmalar bilan ta`minlaganda o`qituvchining fikrlash va bilim olish mustaqilligini anchagina ko`tarishi ma`lum bo`ladi. O`quvchilar taqqoslash, tahlil qilish, dalillar keltirish kabi ish turlarini yangi vaziyatga ko`chiradilar, shu bilan birga ma`lum umumlashmalar qiladilar, farazlarni ilgari suradilar, zarur ashyolar, materiallar to`playdilar, xulosalar chiqaradilar, ma`lum masalani hal qilish bosqichidagi o`z faoliyatlarini rejalashtiradilar. Bu o`qitishning yangi usullari bo`lmish bilimlarni faollashtirish, metodlarni ustma – ust qo`llash kabilarni keltirish zaruratini tug`diradi.

Evristik metodda taqdim etilgan savol, topshiriq va ko`rsatmalar ogohlantiruvchi xususiyat kasb etadi. Ya`ni ular topshiriqning bajarilishi oldidan mazkur bosqichga moslab qo`yiladi yoki uning yechimi davomida o`rta tashlanadi. Adabiy ta`lim jarayonida qo`llanilgan evristik metod o`quvchilarning bilim olish va tafakkuridagi mustaqillikning nisbatan yuqori bo`lishini ta`minlaydi, ularda mustaqil muloxazalar yaratish, muhokama qilish, xulosalar chiqarish ko`nikmasini shakllantiradi.

Darsning mavzusi: “Bemor” hikoyasi matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

*ta`limiy* – o`quvchilarga matn va uning tarixi haqida ma`lumot berish, badiiy asar tili haqida tushuncha hosil qilish;
tarbiyaviy – o`quvchilarni vatanparvarlik, o`zaro mexr – oqibat ruhida tarbiyalash;

rivojlantiruvchi – o`quvchilarning mavzu bo`yicha olgan bilimini rivojlantirish, badiiy asar tili tushunchasini shakllantirish;

Darsning jihozi: darslik, qo`shimcha adabiyotlar, tarqatmalar, ko`rgazmali qurollar.

Darsning usuli: savol – javob

Darsning borishi –

I. Tashkiliy qism:

Ustoz: Assalomu alaykum aziz o`quvchilarim,

Adabiyotni sevuvchi bilimga chanqoqlarim.

O`quvchilar: Vaalaykum assalom aziz ustoz – muallim,

Faningizni sevamiz, bizga berasiz ta`lim.

Ustoz: hozir o`zbek shoir va yozuvchilari nomlarini aytib joyimizni egallaymiz.

O`quvchilar shoir va yozuvchilar nomlarini aytib, joylarini egallaydi.

Ustoz: Keling ko`ngil bo`lsin to`q,

Bugun darsda kimlar yo`q?

Navbatchi aniqlanib, davomat belgilanadi, sinf guruhlariga bo`linadi va guruhlar asosida o`tiladi:

1 – “Bilimdonlar”; 2 – “Zukkolar”;

3 – “Topqirlar”; 4 – “Donolar”.

Ma`naviyat daqiqasi:

“Prezidentimiz asarlarini o`rganamiz!”

- Aziz o`quvchilar! Bilasizki, yurtimizda yoshlarning har tomonlama yuksak salohiyatli bo`lishlari uchun davlatimiz va hukumatimiz tomonidan turli qarorlar qabul qilinmoqda va shart – sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning uchun esa tinmay o`qib o`rganishimiz, fan cho`qqilarini egallashimiz lozimdir. Prezidentimizning “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarlari ham aynan shu haqidadir.

Guruhlarga **“tezroq top”** mashqi asosida, asar yuzasidan savollar beriladi va tezlikda javobi tinglanadi, javobi topilmagan savollar keyingi guruhga beriladi:

- Asar qachon yozilgan va qayerda nashr etilgan?
- Qanday millatning kelajagi yo'q?
- Ma'naviy tahdid nima?
- Ma'naviyatga qanday ta'rif berilgan?
- Toshkent “Islom madaniyatining poytaxti” deb qachon e'lon qilingan?
- Asarda Navoiyga qanday ta'rif berilgan?
- Asarda qaysi adiblarning nomi tilga olingan?
- Milliy g'oya nima?
- Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi ilk bora qachon ishlab chiqilgan?
- Eng buyuk jasorat nima?

Faol qatnashganligiga qarab guruhlar **“rag'bat”** bilan taqdirlanadi.

II. O'tilgan mavzuni so'rash :

Uy vazifalarini daftardan tekshirib, o'tilgan mavzu bo'yicha **“Sen bilasanmi?”** mashqi orqali savolli kartochkalar tarqatiladi:

1. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug'ilgan ?
2. Abdulla Qahhorning otasi kim bo'lgan?
3. Adibning bolaligi qayerlarda o'tgan ?
4. Adibning **“Sarob”** romani qachon yozilgan?
5. Yozuvchi o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda qachon o'qigan?
6. Adib ilk ish faoliyatini qayerda boshlagan?
7. Abdulla Qahhor qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
8. Dastlabki qissasi qanday nomlanadi va qachon yozilgan?
9. **“Sarob”** romani qachon kitob holida nashr etilgan?
10. Adibning qanday komediyalarini bilasiz ?
11. Adibning qaysi qissasi tugallanmagan?
12. Adib qachon vafot etgan?

Javobi topilmagan kartochkalar keyingi guruhga beriladi va eng faol guruhlarga rag'bat va javob bergan o'quvchilarga jeton beriladi.

Yangi mavzu bayoni:

Abdulla Qahhor hikoyanavis yozuvchi bo'lib, o'zbek hikoyachiligiga munosib hissa qo'shgandir. Uning o'tmish voqealaridan so'zlovchi bir necha hikoyalari bo'lib, shulardan biri "Bemor" hikoyasidir. Hikoya 1936-yilda yozilgan bo'lib, avtobiografik xarakterga ega.

Abdulla Qahhor o'z xotiralarida bu haqda yozib qoldirgan va oxirida badiiy to'qimadan foydalangan holda tugatgan. Endi esa hikoyani tinglaymiz:

"BEMOR"

"-Sotiboldining xotini og'rib qoldi .

Sotiboldi kasalni o'qitdi –bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi.Tabib qon oldi. Bemorning ko'zi tinib ,bosh aylanadigan bo'lib qoldi .Baxshi o'qidi .Allaqanday bir xotin kelib tolning hipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi ...Bularning hammasi albatta pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda ,albatta, "yo'g'on cho'ziladi,ingichka uziladi". Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli imorat, shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib, o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi. Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmasdi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'ldan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa turg'izib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

Devonai Bahovuddinga hech narsa ko'tardingmi?

G'avsul A'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi-har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib onasining yuzini karaxt, xira

pashshalardan qo'riydi; ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hamma yoq jim faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: "Hey do'st, Shaydullo, ba nomi Ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo..."

Bir kechasi bemor juda yomon azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

- Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb "chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan 20 tanga qarz ko'tardi. "Chilyosin" dan bemor tirik chiqqanday bo'ldi: shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

- Xudo qizimning saharlab qilgan duosini dargohida qabul qildi. Dadasi endi tuzukman, qizimni saharlab uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi- saharga borib uzildi.

Sotiboldi qizini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin..."

IV. Mustahkamlash:

Xattaxtaga dastlab tushinilishi qiyin bo'lgan so'zlar yoziladi va izohlanadi:

Izvosh - ot qo'shilgan arava;

Oq podsho – o'sha davrdagi Rossiyaning podshosi;

Qabza – tutqich, dasta;

Oftobshuvoq – bahorgi ta'sir kuchi kam oftob;

Chilyosin – Qur'onning "Yosin" surasini o'qish bilan bog'liq bo'lgan diniy marosim;

Sim – Farg'ona shahrining eski nomi;

Gavron – tayoq, xivich.

Keyin esa "osmon yiroq, yer qattiq", "yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" iboralariga diqqat qaratiladi.

O'quvchilar jumalarning ma'nosini sharhlashga urinib ko'radilar. O'quvchilar quyidagicha javob berishi mumkin:

1 – Maqol chorasiz qolgan odamlarga nisbatan qo'llaniladi. Sotiboldi ham chorasiz, najotsiz inson edi.

2 – ibora yo'g'on bu – boylar, ingichka- kambag'allar; og'ir kunlarda boylar kambag'allashib, Sotiboldiga o'xshagan kambag'allar esa butunlay sinadi.

Fikrlar umumlashtiriladi.

Mustahkamlash qismining keyingi bosqichida "o'ylab ko'r" mashqi o'tkazilib, guruhlariga savol va topshiriqlar beriladi, vaqt belgilanadi:

- Asardagi qaysi detallardan Sotiboldining xotini yosh ekanini bildingiz?
- Abdug'aniboyning berahm, xasis ekanligini qaysi detallar ko'rsatadi?
- Sotiboldi xotinini nega kasalxonaga olib bormadi?
- Tabib haqida qanday fikrdasiz?
- Abdug'aniboy qanday inson, nega Sotiboldi kam haq oladi?
- Tashqarida gadoylar ovozi eshitilishining asarga qanday aloqasi bor?

(O'quvchilar javobi tinglangach, jumalarni to'ldiraman va javob darajasiga qarab jeton bilan taqdirlayman.)

Mustahkamlash qismining so'nggi bosqichini "Diqqat! Muammo!" deb nomlanadi. O'quvchilarga quyidagi savollarni berish orqali bahs – munozaraga chorlanadi.

- Nega asar "Bemor" deb nomlangan?
- Bemor dardining davosi nimada deb o'ylaysiz?

Guruhlar o'zaro bahs – munozaraga kirishib, o'z fikrlarini asoslab berishga urinadilar.

Javoblar natijasiga qarab jeton bilan baholayman.

Asar soʻngida berilgan badiiy asar tili haqida tushuncha boʻyicha maʼlumot beraman:

“Til bilan bogʻliq uchta tushunchani aralashtirib yubormaslik, ularni oʻzaro farqlash lozim. Bular: 1. Umumxalq tili. 2. Adabiy til. 3. Badiiy til.

Umumxalq tili deganda yurtimizdagi oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarning barchasi – ularning yashash hududi, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi, hayotda bajarayotgan mashgʻulot turi va boshqalaridan qatʼi nazar, foydalanadigan til tushuniladi.

Adabiy til deganda umumxalq tilining leksik, grammatik, imlo va talaffuz jihatdan meʼyorlashtirilgan shaklini tushunamiz.

Badiiy til esa, bir tomondan umumxalq tili va adabiy tilga tayanadigan, boshqa jihatdan esa ularni har ikkisidan farqlanib turadigan alohida sanʼat hodisasidir. Badiiy tilning mavjudligi ijodkor shoir va yozuvchilar faoliyati bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu maʼnoda badiiy til oʻz zamirida milliy adabiyotimizning asrlar osha shakllanib kelgan anʼanalarni saqlab qolgan. Ayni paytda har bir isteʼdodli ijodkor badiiy til imkoniyatlari doirasini kengaytirishi, bu tilning yanada joziba kashf etishini taʼminlashi mumkin. Bu jarayonda adabiy til qonun – qoidalaridan chekinishga, umumxalq tili boyliklariga dadil murojaat qilishiga toʻgʻri keladi.”

Har bir qahramon oʻziga oʻzgacha yondoshuvni talab qiladi, har birining yuragi alohida kalit bilan ochiladi. Bu kalit – uning kayfiyati, feʼl – atvori, nutqi, axloqi, dunyoqarashi singari oʻnlab unsurlarning betakror tasviri bilangina ishga tushadi. Shundagina oʻquvchi koʻz oldida qahramon xuddi tirikdek harakat qiladi, gapiradi, kuladi, oʻylanadi, iztirob chekadi, shodlanadi va ... oʻladi. Qahramonning har bir harakati oʻquvchiga ham “yuqadi” uni oʻz olamiga “olib kirib ketadi”.

V. Darsni yakunlash:

Aziz oʻquvchilar, bugun sizlar bilan ancha hazin boʻlgan “Bemor” hikoyasini oʻtdik va asar boʻyicha ishladik, undagi muammolar haqida oʻylab koʻrdik va javobini topishga urindik.

Demak, nafaqat Sotiboldining xotini, balki jamiyat ham BEMOR ekan.

VI. Uy vazifasi:

Uy vazifasi qilib “Bemor” hikoyasining hayotiy davomini har kim oʻzicha tasavvur qilib yozib kelish.

VII. Oʻquvchilar bilimni baholash:

Guruhlar jetonlari jamlanib, ilgʻor guruh aniqlanadi. Darsda faol qatnashgan oʻquvchilar baholanib, baholar izohlanadi.



“OʻGʻRI” HIKOYASINI “KLASTER” USULIDA OʻRGANISH

Klaster” (“tarmoqlar”) metodi oʻquvchilarni biron bir mavzuni chuqur oʻrganishlariga yordam beradi. Mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma – ketlik bilan uzviy bogʻlagan holda tarmoqlashlariga oʻrgatadi. Bu metod oʻquvchilarni oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Klaster usuli zamonaviy taʼlim jarayonida keng qoʻllanilmoqda. “Klaster” soʻzi “Gʻuncha, bogʻlam” maʼnosini anglatadiki, bu biror mavzuni oʻrganayotgan oʻquvchilarning erkin fikrlashiga yordam beradi,

ularga o'z fikrini ochiq – oydin ifodalashga ko'maklashadi.” Bu usul qo'llanilganda o'rganilayotgan mavzuga oid bo'lgan tushunchalarning barcha variantlari jamlanadi. Natijada mazkur mavzu o'quvchi ongida barcha jihatlar bilan namoyon bo'ladi. Klasterlarga ajratish orqali o'quvchining fikrlashi rag'batlantiriladi. Chunki u mavzuni klasterlarga ajratishda o'z ishtiroki bilan sinfga ma'lum muammoni hal etishda yordamlashadi. Klaster usuli o'quvchilarda bilganlarini ifodalashdan tashqari yangi fikrlarni uyg'otadi, mavzu bo'yicha o'z qarashlarini oshkora bildirishga o'rgatadi. Klaster tuzish ketma – ketligi quyidagi tartibda bo'ldi:

- 1) xattaxtaga “kalit so'z” yoxud “kalit birikma” yoziladi;
- 2) o'quvchilarga bu mavzuga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar yoki birikmalarni yozish topshirig'i beriladi;
- 3) mavzuga oid tushunchalar va g'oyalar o'rtasida o'zaro bog'lanish bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi;
- 4) o'quvchilar bilgan mavzuga oid variantlarning barchasini yozishlariga imkon beriladi.

Klaster tuzishda sinfdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishiga erishish lozim. Shudagina ko'zlangan natijaga, ya'ni o'quvchilarni faollashtirishga, o'rganilayotgan mavzuga befarq bo'lmasligiga erishish mumkin.

Darsning mavzusi: Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi.

“O'g'ri” hikoyasi matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy – o'quvchilarga Abdulla Qahhorning hayoti haqida qo'shimcha ma'lumot berish, “O'g'ri” hikoyasi bilan taniishtirish, matn ustida ishlash orqali tushuncha hosil qilish;

Tarbiyaviy – o'quvchilarni ona tabiatga mehr, vatanga muhabbat va o'zaro inoqlik asosida tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi– o'quvchilarning fan yuzasidan olgan bilimni mustahkamlash, mustaqil fikr ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning jihozi: Darslik, tarqatmalar, ko'rgazmali qurollar.

Darsning usuli: Savol – javob.

Darsning borishi –

I. Tashkiliy qism:

*O`quvchilar:* Fan olami go`yo bir dengiz,

Javohirlar unda beqiyos.

Ta`zim bilan aytamiz sizga,

Assalom, ey, muhtaram ustoz!

Ustoz: Salom aziz o`quvchilarim,

Ilm gulshanida gulg`unchalarim.

Bugungi darsimiz adabiyot,

Barcha so`zlar sizga bo`lsin yod.

Bugungi darsga barchangiz shaymi?

O`quvchilar: Adabiyot fanining ixlosmandimiz,

Bugungi darsga barchamiz shaymiz.

Ustoz: O`quvchilar, hozir barchangiz vatan haqidagi hikmatli so`z, maqol yoki to`rt satr she`r aytib joylashing.

O`quvchilar ona yurt haqidagi hikmatli so`z, maqol va she`rlarni aytgandan so`ng joylashadilar.

Navbatchi aniqlanib davomot belgilanadi. Sinf uch guruhga bo`linadi va quyidagicha nomlanadi:

1 – “Barkamol avlod”; 2 – “Porloq kelajak”; 3 – “Tafakkur yulduzlari”.

Siyosiy daqiqa:

- Siyosiy daqiqada quydagi savollarni berish orqali o`qovchilar bilimi sinaladi:
- O`zbekiston qachon mustaqil davlat deb e`lon qilingan?
- O`zbekiston Respublikasi davlat bayrog`i qachon qabul qilingan?
- O`zbekiston Respublikasi davlat gerbi qachon qabul qilingan?
- O`zbekiston qachon BMT ga a`zo bo`lgan?
- Bu yil Prezidentimiz tomonidan qanday yil deb e`lon qilindi?
- Siz yoshlarga e`tiborni nimalarda ko`rishingiz mumkin?

O`quvchilarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar tasvirlangan suratlar taqdim etiladi. Davlatimiz ramzlari aks etgan va qadimiy shaharlarimiz tasviri tushurilgan suratlar ko`rsatiladi va izoh beriladi.

II. O`tilgan mavzuni so`rash:

O`tilgan mavzu bo`yicha auksion o`tkazaman. Auksion quyidagi tartibda o`tkaziladi: O`quvchilarga raqamlangan summali vatman taqdim etiladi. O`quvchilar istagan raqamlarini aytib raqam bilan birgalikda kelgan summani qo`lga kiritadilar, buning uchun raqam ostiga yashiringan savollarga javob berishlari kerak.

1 200	2 500	3 300	4 200
5 400	6 300	7 400	8 500
9 200	10 300	11 400	12 500

- O`quvchilarga quyidagi savollarni beraman:
- Turdi Farog`iy qaysi davrlarda yashab ijod etgan?
- Turdining hayoti va faoliyati kimlar hukmronlik qilgan davrga to`g`ri kelgan?
- Turkiston qachon uch xonlikka bo`linib ketdi?
- Bu davrda Qo`qonda kim hukmronlik qilgan?
- Nodirmuhammad Xivaga qachon qo`shin kiritdi?
- Miyonko`lda Subhonqulixonga qarshi qo`zg`lon qachon bo`lgan?
- “Bov” so`zining ma`nosi?
- Turdining bizga qancha adabiy me`rosi yetib kelgan?
- Turdi qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
- Soqiy so`zining ma`nosi?
- “Tor ko`ngullik beklar ... “ she`ri qaysi janrda yozilgan?
- O`zbeklar etnik jihatdan necha urug`dan iborat bo`lgan, ulardan ayrimlarini ayting.

To'g'ri javob berib, eng ko'p summa yig'gan guruhga "Sirli sovg'a", ya'ni bugungi o'tilajak ijobkor kitobi sovg'a qilinadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'quvchilar hukmiga Abdulla Qahhor asarlari, hayot yo'liga doir ma'lumotlar tasvirlangan bukletlar taqdim etiladi va bir-bir tanishtiriladi. O'quvchilarning 6-sinfda Abdulla Qahhor hayoti va ijodi bilan tanishganini hisobga olgan holda guruhlariga adib hayoti va ijodiga doir ma'lumotlardan hotiralarida qolganini "klaster" usulida yozib chiqish topshiriladi.

Har bir guruh o'zi bajargan ish yuzasidan taqdimot o'tkazadi, guruhlar fikri tinglab o'tilgach, qo'shimcha qilib to'ldiraman va yozuvchi haqida aytilgan ushbu fikrlarni keltirib o'taman:

"Abdulla Qahhor kamdan kam yozuvchiga nasib bo'ladigan baxt sohibi – u allaqachonlar xalq qalbining to'ridan joy olgan. Respublikamizda uning nomini eshitmagan biron qishloq, kitoblari kirib bormagan biror xonadon yo'q desa bo'ladi. Uning asarlarini talaba ham, dehqon ham, ishchi – yu olim ham baravar sevib o'qishadi" Ozod Sharafutdinov

"Yozuvchi so'zga shunchalik xasiski, agar bu mitti durdonalarning har birini qayta hikoya qilingudek bo'lsa, hikoyaning o'zidan ko'p joyni egallagan bo'lar edi..." Odil Yoqubov.

"Men tajriba uchun ustozning "Bemor", "O'g'ri", "Anor" hikoyalaridan ba'zi so'zlarni olib tashlab ko'rdim. Bo'lmadi. Hikoya bir ustuni olib tashlangan ayvonga o'xshab lapanglab qoldi."Said Ahmad

- Abdulla Qahhor siz yuqorida tinglagan yozuvchilar aytganidek, so'z tanlash va uni qo'llay bilishning noyob uquvini olgan buyuk yozuvchi edi.

Aziz o'quvchilar, endi adibning darslikda berilgan "O'g'ri" hikoyasini o'qishga kirishamiz:

O`G`RI

Otning o'limi itning bayrami.

Maqol

Kampir tong qorong'isida hamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O! ... Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan ... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n – o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Kampir dod soldi. Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi ... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag` - dag` titraydi, tizzalari bukilib – bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqag'laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi. Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi keldi, og'ilga kirdi. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi:

- Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.

- Xudo xayr bersin ... Ola ho'kiz edi ...

Odamlar o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha – bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig'lar edi.

- Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oq podsho qo'lidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi. Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu “xudo yallaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim – da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lishi uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog` beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo

hamyonini qoqishtirib borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto`xtov aminga xabar qilmoqchi bo`lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo`ldi. Quruq qoshiq og`iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo`ladi? Berganga bitta ham ko`p, olganga o`n ta ham oz. Chol kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho`kizni bo`ynidan bog`lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas. Qobil bobo ro`para bo`lganda amin og`zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi.

- Ha, sigir yo`qoldimi?

- Yo`q ... sigir emas, ho`kiz, ola ho`kiz edi.

- Ho`kizmi? Ho`kiz ekan – da. Hmm ... Ola ho`kiz?

Tavba ...

- Bor – yo`g`im shu bitta ho`kiz edi ...

Amin chinchalog`ini ikkinchi bo`g`inigacha burniga tiqib kuldi.

- Yo`qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho`kiz edi?

- Ola ho`kiz ...

- Yaxshi ho`kizmidi yo yomon ho`kizmidi?

- Qo`sh mahali ...

- Yaxshi ho`kiz birov yetaklasa keta beradimi?

- Bisotimda hech narsa yo`q ...

- O`zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo`yilmagan ekan – da! Nega yig`lanadi? A? Yig`lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tik qoldi.

- Qidirtirsakmikin – a? – dedi amin chinchalog`ini etigining ostiga artib. – Suyunchisi nima bo`ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga “Ma, ho`kizing” deganday bo`lib ketdi.

- Kam bo`lmang, - dedi pulni uzatib, - yana xizimatingizdaman.

-Men beto`xtov pristavga xabar beraman, o`zi chaqirtiradi.

Bir hafta o`tdi. Bu bir hafta ichida kampir “Duoning zo`ri bilan qulf ochadigan” Azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch

yelpishtovoq jo`xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo`ldi:

- Ha, ho`kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin – da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo`ladi!

Qobil bobo yor – do`stlar bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo`ldi? Ma`lum bo`ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo`lsa ham, Qobil boboning o`zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo`ni – qo`shni, yor – birodarlar o`zaro yig`ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o`tib bo`lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto`xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va`da qildi. Cholning butun bo`g`inlari bo`shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go`rda bir narsa deya oladimi? “O`ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan”. “Yaxshilab tushuntirilgan” pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so`m pul olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga: “Beto`xtov hokimga xabar beraman”, - demasdan: “Aminga bor”, - deb qo`yaqoldi. Amin: “Ellikboshiga borilsin”, - dedi.

- Gumoningizni ayting bo`lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo`lib. – Kim olganini men bilmasam, avliyo bo`lmasam! Olgan odam allaqachon so`yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko`nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko`nchilikka tushgan bo`lsa, allaqachon charm bo`ldi; xudo biladi, kavush bo`lib bozorga chiqdimi...

- Endi bizga juda qiyin bo`ldi-da. Peshonam sho`r bo`lmasa... - dedi chol yerga qarab.

- Ey, yosh bolamisiz! Nega yig`laysiz? Kap – katta odam... Bitta ho`kiz bo`lsa bir gap bo`lar, xudo ajalga to`zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho`kiz bersin. Bitta ho`kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko`p achindi va yerni xaydab olgani bitta emas, ikkita ho`kiz berdi, lekin “Kichkinagina” sharti bor. Bu shart kuzda ma`lum bo`ladi...

IV. Mustahkamlash:

Avvalo guruhlarga umumiy savol tashlash bilan ularning fikri so`raladi, savollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

- Hikoya nomi va epigrafiga e`tibor qilaylik, nega aynan shu nom va epigraf tanlangan, boshqacha nomlash ham mumkinmi?
- Nega aynan Qobil bobo? Hikoya qahramonining nomida ramziy ma`no bormi, nima deb o`ylaysiz?

Guruhlar o`zlarining fikrlarini bildirib o`tadilar. So`ngra guruhlarga muammoli savollar kartochka holida beriladi va guruh a`zolari o`zaro kelishib javob berishga urinadilar:

“Barkamol avlod”:

1. Hikoya qaysi faslda sodir bo`lgan deb o`ylaysiz, javobingizni asoslang?
2. “Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho`kizi yo`qolmasin” jumlasining ishlatilish sababini izohlang.

“Porloq kelajak”:

1. Qobil boboning holati tasviriga e`tibor qarating, nega u dag` - dag` titraydi?
2. Ellikboshining taftishiga izoh bering.

“Tafakkur yulduzlari”:

1. Nega qonun himoyachilarining o`zlari jinoyat qilmoqdalar, nega Qobil bobo ularga qarshi chora ko`rmas?
2. Egamberdi paxtafurushning sharti qanday bo`larkin?

(Har bir guruh o`zlariga berilgan muammoli savollar yuzasidan fikrlarini bildiradilar. Ularning fikrini eshitib to`ldiraman va o`z fikrimni bildiraman.)

V.Darsni yakunlash:

- Aziz o`quvchilar, bugun sizlar bilan so`z san`atkori Abdulla Qahhor hayoti va ijodi hamda “O`g`ri” hikoyasi yuzasidan suhbatlashdik, mulohaza qildik.

O`quvchilarning mavzu yuzasidan bergan savollariga javob qaytaraman.

VI.Uy vazifasi:

Hikoyadagi maqol, ibora va o`zlari uchun qiziq bo`lgan jummalarni yozib kelish hamda “Dahshat” hikoyasi bilan tanishib kelish beriladi.

VII.O`quvchilar bilimini baholash:

“Auksion” da g`olib bo`lgan guruhga Abdulla Qahhorning “O`tmishdan ertaklar” qissasi sovg`a qilinadi. Darsda faol ishtirok etgan o`quvchilar baholanib, baholar izohlanadi.



BADIIY ASARNING TILINI O`RGANISH. BADIY ASARNING O`QUV TAHLILI

Biz bir asar tilini tahlil qilishni rejalashtiraylik. Buning uchun e`tiborda tutilishi shart bo`lgan ayrim xususiyatlar borki, biz ularni esda tutishimiz kerak. Bular:

- 1) o`quvchilarning oldingi sinflarda ona tili va adabiyoti darslarida olgan bilimlari;
- 2) ularning adabiy-nazariy tayyorgarliklari;
- 3) matndagi asosiy tasvir vositalarini aniqlay olish hamda ularning shu matnda bajarayotgan vazifalarini tahlil qila olishga oid malaka va ko`nikmalari.

Badiiy asar tilini tahlil qilishda ham uzviylik hamda uzluksizlik asosiy tamoyil bo'lib qolishi kerak. Shunga ko'ra badiiy asar tilini o'rganishda ham o'quvchilarning bu sohadagi bilimlarining bosqichma-bosqich ortib borishiga e'tibor qaratish lozim.

Buni shunday tasavvur qilsak bo'ladi:

1. *Poetik til haqidagi dastlabki ma'lumot.*
2. *«Poetik nutq» tushunchasi.*
3. *Poetik matnning sintaktik qurilishi.*
4. *Badiiyat va tasvir vositalari mutanosibligini umumlashtirish.*

Biz Xorazmiy haqida gapirganimizda, jumladan, shunday deymiz: «Xorazmiyning tili nihoyatda shirali. U o'zbek tilining nozik va nafis ichki imkoniyatlarini muhabbat bilan namoyish eta olgan. «Shakardek til», «tong yoqtusitek», «tan ichra jon», «arslon yurak», shuningdek, «oldini tutmoq», «oldin kechmoq», «yer o'pmoq», «yelga bermog'» kabi ifodalar Xorazmiy tilining nafosatini belgilab beradi. Asarda Faridun, Sulaymon, Masih, Yusuf, Hotami Toy, Rustam, Ali, Muhammad Xo'jabek singari tarixiy hamda afsonaviy nomlar uchraydi. Muallif o'rni-o'rni bilan arabcha va forsa so'zlardan ham ustalik bilan foydalanadi.

Shuning uchun ham «Muhabbatnoma» o'zbek tili tarixini o'rganish uchun ham boy manba bo'la oladi. Uning o'sha davr tilining badiiy yodgorligi sifatidagi qadri balanddir».

Bu gaplar mag'zini chaqish uchun esa Xorazmiyning «Muhabbatnoma»si tili ustida ishlash talab etiladi.

Buning uchun darslik materialiga murojaat qilamiz: Nomalar oshiqning o'z ma'shuqasiga dil izhorlari tarzida yozilgan. Ularda ma'shuqa *ta'rifi* asosiy o'rin tutadi. Birinchi nomaning dastlabki misralariyoq xuddi shu tarzda boshlangan. Ma'shuqaning ko'rki tengsiz. U ko'rklilarning podshohi uning go'zalligi haqidagi madh (*husnung sipohi*) olamni tutgan.

Ma'shuqa - pariruxsor. Ammo pariruxsorlarning ham go'zali-ko'rkaboyi.

Yuz, qosh, ko'z, xol, bo'y (qad) tasvirlari nihoyatda xilma-xil holatlarda juda go'zal va original tarzda tasvirlanadi:

Pari ruxsoralarning ko'rkaboyi,

Yuzung navro'zu ko'zing bayram oyi

Umuman, asarda haqiqiy go'zallikni ta'rif va tasvir etish, insoniy muhabbat tuyg'ularini samimiy ifodalash, inson qalbidagi nozik kechinmalarni qalamga olish asosiy o'rin tutadi. Bu goh ma'shuqa va saboga murojaat, goh oshiq qalb izhori tarzida namoyon bo'ladi. Ularning barchasiga xos xislat-yuksak badiiyatdir. Adibning o'xshatish va sifatlashlaridan boshlab, tanlagan vazni, janri, qofiya va radiflarigacha ana shunday nozik badiiyatni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOT DARSЛИKLARIDA BERILGAN MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARIDA ISHLATILADIGAN BADIY SAN'ATLARNI O'QUVCHILARGA O'RGATISH

«Badiiy san'atlar» birikmasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda u adabiyot, musiqa, qo'shiqchilik, rassomchilik, haykaltaroshlik, kino, teatr kabi san'at turlarini o'z ichiga oladigan tushunchadir. Tor ma'noda nutqni badiiylashtirish, fikrni jonliroq, obrazliroq, ta'sirchanroq ifodalash maqsadida ishlatiladigan lisoniy vositalar badiiy san'atlar deb ataladi. Masalan, «qotib uxlab yotibdi», deyishdan ko'ra «toshday qotib uxlab yotibdi» deyish ta'sirliroq. Bu o'xshatish tufayli. «Bulut, osmon, adir ortidagi yo'l» desak, manzara bizda hissiyot uyg'otishi qiyin. Shuning uchun A.Oripov bir she'rini: «Parchagina bulut, cheksiz osmon. Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l», – deb boshlagan. Bu ta'sirchanlik – sifatlashlarning sharofati.

Badiiy san'atlar og'zaki nutqda ham, mumtoz adabiyotda va zamonaviy adabiyotda ham, butun jahon adabiyotida ham ishlatiladi. Mumtoz shoirlarimiz ularga sal ko'proq e'tibor berishgan. Ulardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

Tazod

«**Tazod**» atamasi «**zid**» so'zidan olingan. U qarshilantirish deb ham yuritiladi. Qarama-qarshi ma'noli so'z, ibora va qo'shimchalarni (ya'ni antonimlarni), ba'zan zidlov munosabatli sodda va qo'shma gaplarni, fe'ling bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini keltirish orqali fikrni ta'sirchanroq ifodalash san'ati tazod deb yuritiladi.

«**Muhokamatul-lug'atayn**»dan:

Yonoqlari – gul-gul, mijjalari – xor, (**gul – tikan**)

Qaboqlari – keng-keng, og'izlari tor. (**keng – tor**)

«Osmon baland, yer qattiq» iborasida ham tazod bor: **osmon – yer**. «Yaxshi topib gapirar, yomon qopib» maqolida **yaxshi – yomon** antonimlari tazodni vujudga keltirgan. «Keldi jon og'zing'avu, ul sho'xi badxo' kelmadi» (Navoiy) misrasidagi **keldi – kelmadi** so'zlari antonim bo'lolmaydi, lekin tazod san'atiga misol bo'la oladi. Chunki ma'noda zidlik bor.

Tashbeh // tashbih

Tashbeh – o'xshatish degani. Bu ikki atama hozirgi adabiyotshunosligimizda sinonimlar sifatida ishlatiladi. Lekin o'xshatishga asoslangan talmeh, istiora, mubolag'a kabi san'atlar borki, ulardan tashbehni farqlash kerak.

Tashbeh san'atining quyidagi to'rt unsuri mavjud:

1. **Mushabbih** – shoirning diqqat markazidagi predmet, hodisa, belgi yoki ish-harakat.
2. **Mushabbihun-bih** – shoirning diqqat markazidagi mohiyatga o'xshaydigan predmet, hodisa, belgi yoki ish-harakat.
3. **Vajhi tashbeh** – o'xshashlik asosi («yuzing guldek» jumlasida yuz gulga o'xshatilgan, o'xshashlik asosi – go'zallik).
4. **Vositai tashbeh** – o'xshashlikni ifodalovchi grammatik vositalar (**-day, -dek, -dayin** qo'shimchalari, **go'yo, xuddi, misoli, bamisoli** kabi yordamchi so'zlar).

Ushbu to'rt unsurdan biri, ya'ni vositai tashbeh ba'zan tushib qolishi mumkin. Masalan, «Qading sarvu sanuvbartek, beling – qil» misrasida ikkita o'xshatish bor, birinchisining ko'rsatkichi **-tek**, ikkinchisida ko'rsatkich tushib qolgan. «Umr o'tib borar misoli ertak» misrasida tashbeh bor, ko'rsatkichi – «**misoli**» so'zi.

Tarse'

Tarse' – birinchi misradagi barcha so'zlarning ikkinchi misradagi barcha so'zlarga qofiyadosh bo'lib kelishi.

Boburdan:

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Sayfi Saroyidan:

Qamar yuzingdan **bo'lur** munavvar,
Shakar so'zingdan **bo'lur** musaxxar.

Ya'ni: Oy sening yuzingdan (bahra olib) ravshanlashadi, shakar so'zing tufayli totliroq, shirinroq bo'ladi.

Munisdan:

Jonon dudog'i xayoli yanglig',
Hayvon bulog'i zuloli yanglig'.

Ma'nosi: Jononning labi xayolidek, ya'ni shirin va yetishib bo'lmas. Tiriklik chashmasi labidagi namlikdek, ya'ni u ham odamga jon bag'ishlaydi.

Bu baytda ham tarse', ham tashbih san'ati bor. Tashbehning ko'rsatkichi «**yanglig'**» so'zi.

Shir-u shakar

Ikki til yordamida yozilgan she'r – **shir-u shakar**, uch til yordamida yozilgani **shahd-u shir-u shakar** deyiladi (lug'aviy ma'nosi: sut, asal va shakar).

Ular «**mulamma'**», «**talmi'**» degan arabcha atamalar bilan ham yuritiladi. Ko'pincha misraning yoki baytning birinchi yarmi bir tilda, ikkinchi yarmi esa boshqa tilda bo'ladi:

Dilbari xush adoyi man, muncha chuchuk bo'lurmisan,
Omada dar kanori man, bir dame o'ltururmisan? (*Mashrab*)

Talmeh

Biror tarixiy yoki afsonaviy shaxsning, joyning nomini tilga olish, ular bilan bog'liq qissa, rivoyat va afsonalarga ishora qilish orqali nutqni badiiylashtirish usuli **talmeh** deb yuritiladi. Lekin shoir, masalan, Yusuf alayhissalom haqlarida doston yoza turib, u kishining nomlari yoki sifatlarini tilga olsa, bu talmeh emas. Boshqa birov haqida gapirayotib, biror munosabat bilan Yusuf alayhissalomni eslab o'tsa, bu talmeh bo'ladi.

Namangan shahridan kelgan mehmonlari haqida Mashrab yozadi:

Shijoat bobida har qaysisi bir Rustam-u Suhrob,
Adolat taxtiga mingan bu kun sultonlarim keldi.

Rustam va Suhrob degan ota-o'g'il pahlavonlarni, ular bilan bog'liq afsonaviy voqealarni bilasiz.

Alisher Navoiy yozadi:

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdir mudom,
Soqiyo, to tarki joh, aylab gado bo'ldum senga.

Afsonaviy Jamshidning bazmlari, uning qimmatbaho jomi, Xizr alayhissalomga suvidan ichib, qiyomatgacha o'lmaydigan bo'lish nasib etgan hayot chashmasi – bu yerdagi talmehning asosi shular.

Ishtiyoq

Badiiy nutqda bir o'zakdan kelib chiqqan yoki bir o'zakdan kelib chiqqandek ko'rinadigan so'zlarni keltirish **ishtiyoq** san'ati deb yuritiladi. Ishtiyoq – arabcha so'z, «**kelib chiqish**» degan ma'noni bildiradi. **Gul, gulzor, guliston, gulnor, gulro'y** so'zlarini keltirib so'zlasak – ishtiyoq. **Hukm, hakam, muhokama, hakim, mahkum** kabi so'zlarni bir gap yoki parchada mohirlik bilan ishlatish – ishtiyoq.

E.Vohidov yozgan:

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordur tushuncha,
Uch bu so'z yondosh bo'lur:
Mohiru mehru mahorat,
Olimu ilmu amal,

Oshiqu ishq mashhaqqat,

Shoir-u she'r-u shuur.

Mohir va mahorat – o'zakdosh, **mehr** – boshqa o'zakdan, lekin o'zakdoshdek tuyuladi, demak, uchulasi birgalikda ishtiyoqqa misol bo'la oladi. **Olim** va **ilm** – o'zakdosh, **amal** – o'zakdoshdek tuyuladigan so'z. **Oshiq** va **ishq** – o'zakdosh, **mashhaqqat** – o'zakdoshdek tuyuladigan so'z. **Shoir, she'r, shuur** – o'zakdosh so'zlar.

Ishtiyoqqa yana misollar:

1. **Jon** kuydirmasang, **jonona** qayda (go'yo o'zakdosh).
2. **O'zingniki o'zagingdan uzadi** (go'yo o'zakdosh).
3. **Ganja** – vatan, ko'ngli aning **ganjxez**,
Xotiri **ganjur-u** tili – **ganjrez** (go'yo o'zakdosh va o'zakdosh).

Takrir

Takrir – bir yoki bir necha so'zning o'zini mahorat bilan takrorlash san'ati. Agar misralar boshida bir yoki bir necha so'z takror kelsa, bu Yevropa adabiyotshunosligida **anafora** deb ataladi. Sharq adabiyotshunosligida anafora ham takrir san'atining bir turi. Masalan:

Uzoringda nure **ayondur, ayon**,
Bu nurdin kun-u oy **nishondur, nishon**. (*Munis*)

Men bo'lubman do'stlar hijronida
Dilfigoru dilfigoru dilfigor. (*Feruz*)

Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,
Ne uchunkim, **dam bu damdir, dam bu damdir, dam bu dam**. (*Navoiy*)

Nega buncha go'zal ko'rinar olam,
Nega qarab to'ymas ko'zlarim?! (*Uyg'un*)

Hojib

Bir yoki bir necha so'zning qofiyadan oldin takrorlanib kelishi **hojib** san'ati hisoblanadi. Lug'aviy ma'nosi – «**hijob kiygan**», «**parda ortidagi**». O'sha so'zlarni qofiya hijob kabi yashirib turadi.

Masalan:

Temurxon naslidan **sulton** Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi **sulton** aningdek. (*Navoiy*)

Tig' ila yorib **jigarim** yonini,
Yerga oqizdi **jigarim** qonini. (*Navoiy*)

Ta'did

Ta'did – «**adad**», ya'ni sanoq so'zidan. «Adadsiz dushman bostirib keldi» desa, «son-sanoqsiz dushman» degani. Ot turkumiga kiruvchi so'zlar bilan ifodalangan uyushiq bo'laklardan mohirona foydalanish ta'did san'atiga misol bo'ladi. Masalan:

Sarvu gulu lola xaridori bor,
Lek o'tunning dag'i bozori bor. (*Navoiy*)
Ariq qazmoqdamiz, cho'llarda ish ko'p,
Rabotu madrasa, yo'llarda ish ko'p. (*Uyg'un, I.Sulton*)

Tajohuli orifona

Bilib bilmaslikka olish, aql bilan o'zini jaholatda qolgandek ko'rsatish, yana ham aniqroq aytganda, badiiy nutqda ritorik so'roq gaplardan o'rinli foydalanish **tajohuli orifona** san'atidir. Masalan:

Yorab, ul shahd-u shakar yo labdurur... (*Navoiy*)
Izohi: Ey xudo, bu labmi yoki asal bilan shakarmi?!
Aslida shoir bu shakar va asal emasligini bilmaydimi? Biladi! Ma'noni kuchaytirish uchun o'zini bilmaganga soladi.
Yoki:
Umr-ku o'tadi gulduros solib,
Uning qaytganini kim ham qo'ribdi?! (*A. Oripov*)

Tashxis

Tashxis – «**shaxs**» so'zidan olingan, jonlantirish degani. «Yulduzlar tun bo'yi yig'labdi, ona», – deb yozadi shoira Farog'at Kamolova. Yulduz yig'layolmaydi, demak, u jonlantirilgan.

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rib qaytaman.
U qon yig'lab turar har safar:
«Men dardimni kimga aytaman?!». (*Muhammad Yusuf*)

Hozir Samarqandda Ulug'bek yo'q, faqat uning haykali bor. Haykal yig'layolmaydi. U jonlantirilgan, ya'ni insonga, jonli predmetlarga xos xususiyatlar jonsiz predmetlarga ko'chirilgan.

Quyidagi parchada esa qish jonlantirilgan:
Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun so'ylaydi olqish. (*H. Olimjon*)

Mubolag'a

Mubolag'a va **tablig'** so'zlarining o'zagi bir. Ular «**balog'at**» so'zi bilan o'zakdosh. Mubolag'a haddan tashqari bo'rttirib, kuchaytirib tasvirlash demakdir. Yevropa adabiyotshunosligida bu san'at **giperbola** deb yuritiladi. **Tablig', ig'roq, g'uluv** mubolag'aning kuchsizroq, o'rtacha va o'ta kuchli turlari hisoblanadi.

«Alpomish» dostonida tasvirlanishicha, Ko'kaldosh polvon shunday bahaybat ekanki, kovushiga 90 molning terisi ketar ekan:

Oh ursa, olamni buzar tovushi,

To'qson molning terisidan kovushi.

Yana misol:

Oh urarman, oh urarman, ohlarim tutgay seni,

Ko'z yoshim daryo bo'lib, baliqlari yutgay seni.

Ko'z yoshining daryo bo'lib oqishini tasavvur qilib ko'ring!

Ifrot yoki tafrit

Mubolag'aning teskarisi. Mubolag'a – o'ta yiriklashtirish, **ifrot (tafrit)** – o'ta kichiklashtirib tasvirlash. Masalan:

Turfa qishloqi g'azabkardaki, parrandalari,

Tovug'i ignachiyu o'rdagu g'ozi kapalak. (*Maxmur*)

Rus-Yevropa adabiyotshunosligida ifrot **litota** deb yuritiladi.

Irsoli masal

Badiiy nutqni xalq maqollari va hikmatli so'zlari bilan bezash san'ati **irsoli masal** deyiladi. Ba'zan maqol emas, xalq iborasi keltirilishi ham mumkin. Masalan, Lutfiydan:

Ayog'ingga tushar har lahza gisu,

Masaldurkim: «**Charog' tubi qorong'u**».

Tutarman ko'zki, ko'rsam orazingni,

Ki derlar: «**Oqqan ariqqa oqar su(v)**».

G'azal shu tarzda davom etadi. Har bir baytda bitta maqol ishlatilgan. Ma'nosi: Soching har lahza oyog'ingga tushadi. «Chiroq tubi qorong'i» degan maqol bor-ku (yuzi – go'yo chiroq, oyog'iga tushgan qora sochi – qorong'ilik). Yuzingni ko'rsam ko'z tutaman, chunki ko'zim yoshlanaveradi. «Oqqan ariqdan suv oqadi» deganlaridek...

Lutfiyning quyidagi baytida ibora keltirilgan:

Yerga kirsam koshki, chun yetmas ul oyga ilik,

Mushkul ahvole tushubdur: «**Yer qatig'-u ko'k yiroq**».

Tardi aks // tard-u aks

Birinchi misrada kelgan ikki soʻzni teskari tartibda keyingi misrada ishlatish **tardi aks** sanʼati hisoblanadi.

Koʻzung ne **balo qaro** boʻlubtur,
Kim jonga **qaro balo** boʻlibtur. (*Mirzo Alibek*)

Yoki:

Kecha holimgʻa bundoq **necha** boʻlgʻay,
Necha holimgʻa bundoq **kecha** oʻlgay. (*Navoiy*)

Ittifoq

Taxallusni ham taxallus sifatida, ham oʻz lugʻaviy maʼnosida ishlatish **ittifoq** sanʼati deb ataladi. «**Furqat**da bu Saʼdullo devonaga oʻxshaydur» – bu yerda «ayriliq» maʼnosi ham, sheʼr muallifining taxallusi ham bor.

Vaysi(y) beriyozat deb sahl tutma, ey orif,

Ishq aro nihon dardi bedavo **Uvaysiym**an.

«**Vaysi(y)** beriyozat deb» jumlasida shoira taxallusi bor. Oʻsha soʻz oʻz lugʻaviy maʼnosida, yaʼni «riyozat(mashaqqat) chekmay, pirdan gʻoyibona saboq olgan» degan maʼnoda ham kelgan.

Tanosub

Bir-biriga mutanosib, bir-birini taqozo qiladigan tushunchalarni keltirish **tanosub** sanʼatidir: **gul – bulbul, quyosh – nur – kunduzi, quyosh – oy – yulduzlar, kitob – daftar – qalam, dengiz – kema** kabi.

Oltun qafas ichra gar qizil **gul** butsa,

Bulbulga tikondek oshyon boʻlmas emish.

Gul bulbul bilan yaxshi maʼnoda bogʻliq. «Qafas» va «oshyon» tushunchalari ham bir-biriga munosib.

Zulqofiyatayn

Zullisonayn – ikki tilli, **zulqarnayn** – ikki shoxli, **zulqofiyatayn** – ikki qofiyali.

Aylasam koʻnglimi **izhor senga**,
Koʻp sitam qildi u **dildor menga**.

Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidan:

Bu dedi: «Kerak **qulogʻiga pand**»,
Ul dedi: «Kerak **ayogʻiga band**».

Tajnis

Badiiy nutqda omonim va omonimsifat soʻzlarni keltirish **tajnis** yoki **jinos** sanʼati deyiladi. Baʼzan oʻsha soʻzlar qofiya qilib keltiriladi. U tajnisli qofiya deb yuritiladi. Bunday qofiya tuyuqlarda koʻp uchraydi. Alohida baytlarda ham bu usul ishlatiladi:

Qading sarvu sanuvbartek, beling – **qil**,
Vafo qilgan kishilarga vafo **qil**. (Xorazmiy)

-

Iyhom

Koʻp maʼnoli soʻzni yoki omonim soʻzlardan birini bir joyning oʻzida ikki maʼnoda ishlatish **iyhom** deb ataladi.

Boburdan:

Labing bagʻrimni qon qildi, koʻzumdin qon ravon qildi,
Nega holim yomon qildi, men andin bir **soʻrorim** bor.

Bobur labdan ozorlar sababini soʻramoqchi, ayni zamonda shu alamlardan chiqish uchun undan bir... («soʻramoqchi» soʻzidan «a»ni olib qoʻying).

Uygʻun va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» dramasidan:

Senga **besh** bebaho haykal qoʻyurmen ...

Bu yerda «**besh**» soʻzi ham «**5**», ham «**nihoyatda**» degan maʼnolarda ishlatilgan.

Navoiyning quyidagi baytida «**alam**» soʻzi «**iztirob**», «**qiyinchilik**» hamda «**bayroq**» maʼnolarida ishlatilgan:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Istiora

Istiora – oʻxshatishning qisqargan shakli. Oʻxshatishda **-day**, **-dek**, **singari**, **kabi**, **yangligʻ**, **misoli** kabi elementlar boʻladi. Istiorada bunday elementlar boʻlmaydi. Istiora yevropacha atama bilan **m y e t a f o r a** deb ham yuritiladi. «Gʻam lashkari», «yuzing guli», «qading niholi», «umr bahori», «Sharq mashʼali», «litseyimiz qaldirgʻochlari» kabi birikmalardagi ikkinchi soʻzlar istioraga misol boʻladi. Gʻamning lashkari yoʻq, lekin uning vayron etuvchi kuchi lashkarga oʻxshatilgan, lekin **-day**, **-dek**, **kabi** deb oʻtirmasdan, qisqagina «gʻam lashkari» deb qoʻyilgan.

Yana misollar:

Jamoling vasfini, ey **oy**, necha eldin eshitgaymen,
Qachon boʻlgʻayki, vaslingga meni ovora yetgaymen?! (Bobur)
Sen, ey **gul**, qoʻymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayogʻingga tushib bargi xazondek buncha yolvordim. (Bobur)

Saj'

Saj' – bu nasriy asardagi qofiya va she'riy asardagi ichki qofiya, «Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi», «Oshini oshab, yoshini yashab» kabi ifodalar nasrdagi qofiyaga misol bo'ladi. Navoiyning «Mahbub ul-qulub» nomli nasriy asari to'liq saj' yo'li bilan yozilgan. Saj' elementlari «Boburnoma»da ham bor.

She'rdagi ichki qofiyaning quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

ichki qofiya asosiy qofiya

Qaro zulfing **firoqida** parishon **ro'z(i)gorim** bor,
Labingning **ishtiyoqida** ne sabr-u ne **qarorim** bor. (Bobur)

Husni ta'lil

Sabab bo'lmagan narsani sabab qilib ko'rsatish **husni ta'lil** san'ati deb yuritiladi. Navoiy «Hayrat ul-abror»da: «Bulut saxiy bo'lgani uchun xudo uni yuksaklikka ko'tardi, chumoli birovlar ekanini tergani uchun yer ostida uy quradigan bo'ldi», – deb yozadi. Aslida bulutning balandda, chumolining yer ostida bo'lishi tabiiy sabablar bilan bog'liq:

Topqonini sochti el uzra sahob,
Kim oni haq ayladi gardun janob.
Mo'r terar har neki, sochqay kishi,
Bo'ldi tirik go'rga kirmak ishi.

Atoiydan:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizardi gul uyatdin anjumanda.

Aslida gul shoir ta'riflagan yorning go'zalligidan uyalgani uchun emas, o'zi qizil. Lekin baytda gulning qizilligi boshqa sabab bilan izohlanyapti. Demak, shoir husni ta'lil san'atini qo'llagan.

Tamsil

«**Tamsil**» arabcha so'z bo'lib, o'zagi «**misol**» so'zidir. «Tamsil» atamasi esa «misol keltirish», «misol keltirib gapirish» degan ma'nolarni bildiradi. Bunda shoir oldin bir fikrni aytadi, so'ng bu fikrni tasdiqlovchi misol keltiradi. Masalan:

1. Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.
2. Orazin yopqoch, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh. (Navoiy)

Tansiq us-sifot

Gapda sifat turkumi bilan ifodalangan uyushiq bo'laklarni qo'llash **tansiq us-sifot** san'ati deyiladi. Masalan:

1. **Xushtabassum, xushkalomu, xushravish**, raftor ham,
Andalibi bo'stondek **xushnavo** dildorsiz. (*Muqimiy*)
2. Senga rozi dilim izhor etib so'ylar majolim yo'q,
Parishonholu sargardonu dilafgor yig'larman. (*Mashrab*)

Tazmin

«**Tazmin**» arabcha so'z bo'lib, o'zagi «**zimn**» so'zidir. Bu so'zni «har bir ishoraning zimnida katta ma'no bor» deganday gaplarda ishlatishadi. Tazmin san'ati deganda, boshqa shoirning she'ridan bir misra yoki bir bayt olib, uni mustaqil ravishda davom ettirish tushuniladi. Masalan, Mashrab Lutfiyning «Sensan sevarim» deb boshlanuvchi g'azalidan bir bayt olib, uni boshqacha tarzda davom ettirgan. Quyidagi ikki band she'rning ikkinchisida ham tazmin san'ati qo'llangan:

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, javob ber, quyosh. (*G'.G'ulom*)

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Sarbonim, qo'lingdan ketdimikin erk,
Sarbonim, ne uchun ko'tarmaysan bosh? (*A.Oripov*)

Mukarrar

Mukarrar san'ati takrir san'atiga yaqin turadi. Har ikkala atamaning o'zagi «marta» ma'nosini bildiruvchi «karra» so'zidir. Mukarrar san'ati deganda, misra yoki baytda takroriy so'zlarni qo'llash tushuniladi. Masalan:

1. Oshiq o'ldim, bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,
Olloh-olloh, ishq aro bundoq balolar bor emish. (*Navoiy*)
2. Suv oqar **asta-asta**,
Sandig'im temir taxta.
Va'dasida turmagan
Qon yutsin **laxta-laxta**. (*«Tohir va Zuhra» dostonidan*)

Iqtibos

«**Iqtibos**» degan arabiy soʻz «**sitata**», «**koʻchirma**» degan maʼnolarni bildiradi. Badiiy sanʼat sifatida faqat «Qurʼon» oyatlaridan va paygʻambarimiz hadislaridan matn ichida keltirilgan koʻchirmalargina iqtibos deb hisoblangan. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonida Alisher Navoiy Farhod ismi haqida soʻzlay turib, «Qurʼon»da keltirilgan «al-asmoi tanzilin min as-samo», yaʼni «ismlar osmondan tushadi» degan oyatni misralar ichiga singdirib yuboradi. Yana bir misol:

Onalarning oyogʻi ostidadir
Ravzai jannatu jinon bogʻi.
Ravza bogʻin visolin istar esang,
Boʻl onalar oyogʻining tufrogʻi. (*Navoiy*)

Bu yerda «**Jannat onalarning oyogʻi ostidadir**» degan hadis ishlatilgan.

Ittifot

Ittifot sanʼati deganda, murojaat qilinayotgan shaxsni oʻzgartirish tushuniladi. Murojaatni oʻzgartirishga baytlarning mazmuni sabab boʻladi. Nimanidir bayon qilayotgan shoirning koʻngli gʻamga toʻlib ketsa, soqiyga, hayrati oshib ketsa, Ollohga, hamdardlik istasa, doʻstga murojaat qilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy «Koʻrgali husningni zoru...» deb boshlanuvchi gʻazalida avval maʼshuqaga qarata gapiradi, keyin esa soqiyga murojaat qiladi:

Soqiyo, to tarki joh aylab gado boʻldum sango...

Istifhom

Bu arabiy atamaning oʻzagi «**fahm**» soʻzidir. Nimanidir fahmlash maqsadida savol berish, yaʼni sof soʻroq gaplarni qoʻllash **istifhom** deyiladi. Masalan:

Ne uchun koʻzlarda yosh,
Jondan firoq oʻtdimi yo?
Kuydirib hajr oʻtida
Yoring yiroq ketdimi yo?

Anafora

Anafora yevropacha atama boʻlib, ikki yoki undan ortiq misrani bir xil soʻz yoki soʻzlar bilan boshlash sanʼatini bildiradi:

1. **Nega** buncha goʻzal koʻrinar olam,
Nega qarab toʻymas koʻzlarim?! (*Uygʻun*)

2. **Layli g'amini** tanimda jon et,
Layli g'amini ragimda qon et. (*Navoiy*)

Muvozana

Bu arabiy atamaning o'zagi «**vazn**» so'zidir. Birinchi misradagi barcha so'zlarning ikkinchi misradagi barcha so'zlarga vazndosh bo'lib, ya'ni hijolar soni va sifatiga ko'ra bir xil bo'lib kelishi **muvozana** san'ati deb yuritiladi. Masalan:

Uy – oltun, sarfi – oltun, tomi – oltun,
May – oltun, zarfi – oltun, jomi – oltun. (*Navoiy*)

Raddul-matla'

Lirik she'r qaysi misra bilan boshlangan bo'lsa, uni o'sha misra bilan tugatish **raddul-matla'** san'ati hisoblanadi. Atamaning o'zi «**matla'ni qaytarish**» degan ma'noni bildiradi. Masalan, Bobur mashhur g'azallaridan birini: «**Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana**», – degan misra bilan boshlaydi va shu misra bilan tugatadi.

Ogahiyning «**Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay**», – deb boshlanuvchi g'azali ham xuddi shunday xususiyatga ega.

Laff va nashr

Bu arabiy atamalar «**yig'moq**» va «**yoymoq**» degan ma'nolarni bildiradi. Bunda oldin bir necha predmetning nomi ketma-ket sanaladi, so'ng ularning belgilari yoki ularga mos keluvchi boshqa tushunchalar o'sha ketma-ketlikda tilga olinadi:

Bu **orazu zulfu qadu qomatki** seningdur,
Rashki **sumanu sunbulu ar'ar** yetilibsen. (*Atoiy*)

Kitobot yoki harf san'ati

Arab yozuvidagi harflarning shakl-shamoyiliga asoslangan so'z o'yinlari **kitobot** yoki **harf san'ati** deb yuritiladi. Masalan:

Nuqta lab ustida bejodur, desam, aydi kulib:

«Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda». (*Furqat*)

«**Lab**» so'zini arab yozuvida yozsak, nuqta so'zdagi «**b**» harfining ostida bo'ladi. Shuning uchun ham lirik qahramon «**nuqta labning ustida bejo turibdi-ku**» deb hazil qiladi. Kashmir go'zali esa: «**Qudratli kotib yozayotgan vaqtda xato qilgan bo'lsa kerak-da**», – deb javob beradi.

Yoki:

«Jon»imdagi «jim» ikki «dol»ingga fido,

Andin so'ng «alif» toza niholingga fido.

«Nun»i dag'i anbarin hilolingga fido,

Qolg'on iki nuqta iki xolingga fido. (*Navoiy*)

Mumtoz adabiyotda yorning qomati «alif» ʼ harfiga, ezilgan oshiqning qomati «dol» ɔ harfiga yoki «lom-alif» deb yuritiladigan harflar birikmasiga o'xshatiladi.

Ruju'

Ruju' shunday san'atki, unda shoir oldingi misra yoki baytlarda ifodalagan fikridan keyingi misra yoki baytlarda go'yo qaytgandek bo'lib, yanada kuchliroq fikrni ifoda etadi. Masalan:

1. O'n sakiz yil dema, yuz sakson yil o'lsa, uldurur,

Husn shohi ul balolarkim ko'zu qoshindadur. (*Navoiy*)

2. Vale ko'ngliga bu keldikim, ul oy,

Demay oy, oftobi olamoroy. (*Navoiy*)

Savol-u javob

Baytni savol va javob tarzida tuzish **savol-u javob** san'atidir. Masalan:

Dedi: «Qaydin sen, ey majnuni gumrah?»

Dedi: «Majnun vatandin qayda ogoh?!»

Nido

Ma'lumki, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildiruvchi so'zlar undalma deb ataladi. Undalmalardan mohirona foydalanish esa **nido** san'atidir. Masalan:

1. **Yurtim**, senga she'r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo. (*A.Oripov*)

2. Jondin seni ko'p sevarmen, **ey umri aziz**,

Sondin seni ko'p sevarmen, **ey umri aziz**. (*Navoiy*)

Majoz yoki allegoriya

Majoz yoki allegoriya – inson tabiatini jonivorlar yoki jonsiz predmetlar obrazi orqali tasvirlash. Masal janri to'lig'icha majozga asoslanadi. Masalan, «Toshbaqa bilan Chayon» masalida Toshbaqa aslida yaxshi insonning, Chayon esa yaxshilikka ham yomonlik bilan javob qaytaradigan yovuz insonning timsolidir.



Adabiyot. 9-sinf

Mavzu: Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi obrazlar tahlili

Mavzu:	Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi obrazlar tahlili
Maqsad va vazifalar	Maqsad: “O’tkan kunlar” romanidagi obrazlarni tahlil qilish; -asarni tahlillash asnosida ijobiy xislatli qahramonlarning xatti-harakatlari sabablarini toppish orqali o’quvchilarga ezgu sifatlarni tarkib topdirish; -o’smirlarda o’zgalarning tuyg’ularini his etish , boshqalarning dardini tuyish ko’nikmalarini qaror topdirish. Vazifalar: dars jarayonida o’quvchilarni mantiqiy fikrlash, o’z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon etish, o’zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko’p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o’rgatish.
O’quv jarayoninig mazmuni	Asardagi obrazlar va ularning tahlili, asr qahramonlariga o’z munosabatlarini bildirishni o’rgatish. O’quvchilarning yozma va og’zaki nutqini o’tirish.
O’quv	Uslub: Aqliy hujum, og’zaki bayon qilish, “Venn diagrammasi” ,

jarayonining amalga oshirish texnologiyasi	amaliy mashg'ulot, "Charxpalak". Shakl: kichik guruhlar va yakka ishlash. Vositasi: "Adabiyot" darsligi, o'rganilayotgan asar, tarqatma materiallar. Usul: Diagrammalar va tayyor yozma materiallar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi. O'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarga darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Barcha o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi. O'quvchilarni og'zaki hamda yozma nutqlarini oshiradi, ularni erkin fikrlash hamda o'z fikrini himoya qila olish qobiliyatini o'stiradi. O'quvchi: O'tilgan mavzuni to'liq o'zlashtiradi. Guruhlarda ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi, eslash qobiliyati kuchayadi. O'zini nazorat qiladi va baholaydi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: O'z ustida ishlash. Mavzuni hayot bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. Yangi pedagogik texnologiyani takomillashtirish. O'quvchi: Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini bayon qiladi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

Mavzu: Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi obrazlar tahlili

Darsning borishi:

O'tilgan mavzularni takrorlash maqsadida "**Muallifni izlab**" o'yini o'ynaladi:

1. "Mahbub ul-qulub" - A. Navoiy
2. "Kuntug'mish" - Xalq og'zaki ijodi
3. "Muhabatnoma" – Xorazmiy
4. "Ufq" - S. Ahmad
5. "Qutadg'u bilig" - Yusuf Xos Hojib
6. "Uloqda" – A. Qodiriy
7. "O'tmishdan ertaklar" – A.Qahhor
8. "Urushning so'nggi qurboni" –
9. "Kichkina shahzoda" – Ekzyuperi
10. "O'tkan kunlar"

Yangi mavzu ustida ishlash:

O'quvchilar harflar yozilgan kartochkalar yordamida guruhlariga bo'linadi va shu harflardan mavzuga doir so'zlar hosil qilinadi: Qodiriy, Otabek, Kumush
 "Yuqoridagi ismlar sizga kimning qaysi asarini eslatyapti va ushbu asar qahramonlarini sanang" – deb o'qituvchi tomonidan aqliy hujum uyushtiriladi.


O'quvchilar asardagi qahramonlarni aytganlaridan so'ng, ularga quyidagi topshiriq beriladi:

Asardagi timsollarni "Venn diagrammasi" asosida o'xshash va farqli tomonlarini yozing.

1-guruh: Otabek va Homid timsollari;

2-guruh: Kumush va Zaynab timsollari;

3-guruh: O'zbek oyim va Oftob oyim timsollari.



Har bir guruhdan bittadan vakil chiqib o'zlari tayyorlagan "Venn diagramma"ni taqdimotini o'tkazadilar.

Mavzu yuzasidan "Charxpalak" texnologiyasidan foydalanish tartibi:

Tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish.

1. Guruh a'zolari tomonidan tarqatma materialdagi vazifalar bajariladi.
2. Har bir guruh har xil rangdagi markerlardan foydalanadi: qizil, ko'k, yashil.
3. Vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi.
4. Yangi guruh tomonidan berilgan materiallar o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi.
5. Materiallar oxirgi almashishdan so'ng har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarni tanlab oladilar.
6. Har bir guruh a'zosining o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar.
7. O'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javoblarni belgilaydi hamda guruhlar ishtirokini baholaydi

Tarqatma materiallar

1-guruh

T/r	“O’tkan kunlar” romanidagi timsollarga xos xususiyatlar	Ota- bek	Ku- mush	Quti- dor	Yus- uf- bek hoji	O’z- bek oyim	Of- tob oyim	Ho- mid
1.	“Yuzida muloyimlik, eriga itoat, to’g’riliq ma’nolari tomib turgan”					+		
2.	“...to’lg’an oydek g’uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg’a aylanganda, kimdandir uyalgan kabi..”		+					
3.	“...uncha-muncha to’y- u azalarga “Kavshim ko’chada qolg’an emas” ,-deb bormas edi					+		
4.	“...o’z uyida o’ltirg’anida ham ustidagi atlas ko’ynak bilan adras murshakni qo’ymay o’lturar edi”					+		
5.	“... xotin bilangina emas , umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo’lsa- bo’lsin uzoq so’zlashib o’lturmaydir ”				+			
6.	“...Ma’qul tushsa “xo’b”deydir, gapka tushunmagan bo’lsa “xo’sh”deydir...”				+			
7.	“...bir chiroylik, bir aqllik, tag’in o’zi hammadan yuqorida o’lturadir”	+						

2-guruh

T/r	“O’tkan kunlar” romanidagi timsollarga xos xususiyatlar	Ota- bek	Ku- mush	Quti- dor	Yus- uf- bek hoji	O’z- bek oyim	Of- tob oyim	Ho- mid
-----	--	-------------	-------------	--------------	----------------------------	---------------------	--------------------	------------

1.	“Ota-ona orzusiga o’z ta’- birica jonsiz hay kal bo’lib rizoliq berdi	+						
2	...ismimdin taloqnoma yozib, ikki yillabraqamdan ayirib turishka muvaffaq bo’ldingiz”							+
3	“...tersaygancha kelib choyg’a o’lturdi, otasig’a salom bermadi ”	+						
4	Ko’p umrini yurtning tinchligi va fuqarolarning osoyishi uchun sarf qilgan				+			
5	“Marg’ilon degan shahardan katta o’zini kichik olib kelayotgan...”			+				
6	“Yusuf savdosida beqaror Zulayho...”		+					
7	“Butun shaharni alg’oq-dalg’oq qilib ko’hlik qiz qidirg’an”					+		

3-guruh

T/r	“O’tkan kunlar” romanidagi timsollarga xos xususiyatlar	Ota-bek	Ku-mush	Quti-dor	Yus-uf-bek hoji	O’z-bek oyim	Of-tob oyim	Ho-mid
1	“mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar ...edi”			+				
2	“...chala dum-bul tabiatlik bir xotin...”					+		
3	“...Otabek bilan birar to’g’risida so’zlashmakchi bo’lsa, uni aksar mehmonxonaga				+			

	chaqirib oladi”							
4	“...chor-nochor o’ttuz kunlab bir zamonni o’zicha marg’ilonliqni qarg’ash bilan kechiradir”					+		
5	O’z nafsini qondirish yo’lida har qanday past-kashlikdantoymaydi							+
6	“...Agarda manim yurt so’rmoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoq-qa orzum bo’lsa ... senga ma’lum bo’l-masmidi”				+			
7	“...o’rda xonimlari ham ehtirom qilib o’zlarining “ona-xonlari” deb bilardi”					+		

Asarning tiliga ham bir oz to’xtalib o’tiladi

Guruhlarning faoliyati o’rganilib, ular rag’batlantiriladi va mavzu yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi:

Demak, asar qahramonlarining har biri o’ziga xos xarakterga egadirlar.

Ularning qay biridan o’rnak olish sizning hukmingizga havola...

Uyga vazifa: asar qahramonlaridan biriga maktub yozish

MAKTABDA ADABIYOT DARSLARIDA BOBUR IJODIDAN BERILGAN NAMUNALARNI O’RGANISH

Bobur she’riyati o’zbek adabiyotining alohida yorqin sahifasini tashkil etadi. U sodda til, oddiy ifodada ravon uslub va yuksak badiiyatga yo’g’rilgan nafis san’at yaratish mumkinligini namoyish etdi. Adabiyot muallimi Bobur lirikasini o’qitishda ana shu jihatni diqqat markaziga qo’ymog’i kerak.

Amaldagi dasturga ko’ra 5-sinf darsligida o’rganish uchun Boburning 22 ruboiysi berilgan. Albatta ajratilgan ikki soatda ularning barchasi o’rganilmaydi. Buning iloji ham yo’q. Bu faqat o’qituvchi uchum ham, o’quvchi uchun ham dars jarayonida tahlillashda, darsdan so’ng mustaqil o’rganishda tanlash imkonini beradi. Darslikda shoirning besh ruboiysi tahlili berilgan. Ular 5-sinf bolasining

yosh xususiyati, bilim saviyasi, mumtoz she'r namunasini tushunish darajasi inobatga olinib tahlil qilingan. Ularning biriga diqqat qarataylik.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerini qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Ruboiy darslikda shunday tahlil qilingan:

“...Ruboiyning tili sodda, tushunarli. Endi siz fikrga va uning ifodalanishiga e'tibor qiling.

1-satr: Baxtim yo'qligi jonimga balo bo'ldi.

O'ylab ko'ramiz: nega joniga balo? Shuning uchunki, baxtsizlik uni vatanidan ayrdi. Demak, uning baxti –vatanda bo'lishdir.

2-satr: Nima ishki qilgan bo'lsam, xato bo'ldi. Ular qaysi ishlar va nega xato? Vatanni tashlab chiqishi – xato. Uning uchun jonini bermagani – xato. Boshqa ellarga bosh olib ketishi – xato.

3-satr: O'z yerni qo'yib, Hindiston tomon to'g'ri bo'ldi.

4-satr: Ey Xudo nima qilay, qanchalar yuzim qaro bo'ldi.

Qattiq gunoh qilib qo'ygan, elining ishonchini oqlamagan kishini “yuzi qaro” deyilar. Demak, u Hindistonga o'tlanishini o'zi uchun gunohi azim hisoblamogda. Endi bu fikrning ifodasiga, qanday aytilganiga diqqat qarataylik.

Uchinchi satrdagi “yuzlandim”(“yuzimni burdim”) so'zida “yuz” ishlatilmoqda. U to'rtinchi satrdagi “yuz qarolig'”ni kuchaytiradi, ya'ni o'sha yuzim qora bo'ldi. “Hind” so'zida ikki ma'no: 1. Hindiston. 2.Qora. Bu so'z ham “yuz qarolig'”ni kuchaytirishga yordam beradi. Ya'ni: yuzim, uni qoraga burganim uchun, qora bo'ldi”.

Biz ushbu ruboiy tahlilini bejiz to'liq keltirmadik. Birinchidan, bu ruboiy boshqa ruboiylarga qaraganda keng sharhlangan, 5-sinf o'quvchisi uchun tushunarli, sodda tilda, uning mazmun-mohiyati, badiiyati metodik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda bayon etilgan. Ikkinchidan, aynan mazkur tahlil shakli

darslikdagi boshqa ruoiylarni sharhlash uchun o'quvchilarga ham, o'qituvchiga ham na'muna bo'lib xizmat qiladi.

Darslikda Bobur ijodi yuzasidan sakkizta savol va topshiriqlar berilgan. Ularga shu mavzu yuzasidan berilgan maqoladagi faktlar va tahlillarni so'zlab berish talab qilingan. O'quvchiga tayyor yozib qo'yilgan, kitobdagi chaynab og'ziga solib qo'yilganday tahlilni yana qaytib so'zlab berish unchalik qiziq bo'lmaydi. U shunchaki o'qigan, eshitganlarini aytib beradi xolos. Shuning uchun mazkur savol va topshiriqlarga to'xtalmay, mashg'ulotlar davomida darslikda berilgan bir necha ruboiyni yuqoridagi na'muna shaklida o'quvchilarning o'ziga mustaqil tahlil qildirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda o'quvchi izlanadi, har bir satr, so'z ustida bosh qotiradi, ruboiy mazmunini, ifodadagi badiiyatini o'zi kashf qila boshlaydi. Ana shunda adabiyot o'qitishdan ko'zlangan maqsad amalga osha boradi. O'qituvchi darsda savol, topshiriq hamda qo'shimcha izohlar bilan yo'naltirib turish vazifasini bajargani ma'qul. Har bir misraga alohida savol qo'yib, bolalarning tushinishlarini, tahlillarini osonlashtirishi mumkin. Masalan, darslikdagi birinchi ruboiyga quyidagicha savol, topshiriqlar qo'yish mumkin.

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

1. "Yod etmas etmish kishini g'urbatda kishi" misrasi orqali shoir nima demoqchi bo'lgan: g'urbatdagi (vatandan uzoqdagi) kishi boshqa bir kishini yod etmas ekan ma'nosidami yoki g'urbatdagi kishini birov yo'qlamas, yodlamas ekan mazmunidami? Fikringizni hayotiy misollar bilan dalillang.

2. Ikkinchi misradagi "mehnat" so'zining ushbu she'rdagi va hozirda qo'llanayotgan ma'nolari orasidagi tafovutga diqqat qiling. Shoir qanday mehnat (mashaqqat) to'g'risida Siz bilan dardlashmoqda?

3. Bobur mamlakat podshohi bo'la turib nega o'zini g'ariblikda sezadi? Nega sevina olmaydi?

4. Ruboiydagi bir-biriga ma'no jihatidan aloqador bo'lgan uyadosh so'zlarni toping. Ular orasidagi mazmuniy bog'liqlikni izohlang.

5. Ushbu ruboiyga sarlavha qo'yish kerak bo'lsa, Siz uni qanday nomlagan bo'lardingiz?

Shu tahlit boshqa ruboiylar tahlil qilinsa, bolalarda she'rni tushunish, his etish ko'nikmalari ortadi, sharhlash malakasi shakllana boradi. Eng asosiysi, tahlilga nibatan o'zida ishonch uyg'onadi, mustaqil ishlashga rag'bat ortadi.

O'qituvchi darslikdagi lug'atda ma'nosi izohlanmagan, berimagan tushinilishi qiyin yoki o'quvchilar xato tushinishi mumkin bo'lgan so'zlarni oldindan izohlab berishi kerak. Masalan, "Dushmanniki, bi dahr zabardast qilur" ruboiysidagi "naxvat" so'zining ma'nosi darslikdagi lug'atda berilmagan. U buzuq, buzuqlik deganidir, lekin misrada kibr, mag'rurlik ma'nosida kelgan. "Ahbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz..." ruboiysining uchinchi satridagi "Chun gardishi charx bu durur..." iborasi "O'tkinchi bu dunyoning ishi shunday ekan" ma'nosida ekanligini o'quvchilar bilmasligi mumkin. Shuningdek, "Har yerda gul bo'lsa – tikon bo'lsa, ne tong" ruboiysida "ne tong" birikmasi "ajablanarli emas" degani ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Qofiya va radif haqidagi nazariy ma'lumotni aksar muallimlar ruboiylarni o'rganib bo'lgandan keyin ikkinchi darsning so'ngida berishadi. Bu ham mumkin. Lekin bu nazariy ma'lumotlar ruboiylarni o'rganishdan oldin berilishi to'g'riroq bo'ladi. Chunki har bir ruboiy tahlil qilinganida ularning qofiyalanishiga, radifiga ham e'tibor qaratilsa, ular haqida berilgan nazariy ma'lumot dars davomida mustahkamlanib boradi. Darslikda ruboiylar ikki shaklda qofiyalanishi aytilgan bo'lsa-da, ularning nomlanishi keltirilmagan. Muallim bu o'rinda a-a-b-a tarzidagi ruboiylar xosa *ruboiy*, a-a-a-a shaklida qofiyalanganlari *tarona ruboiy* deyilishini aytib, yozdirib qo'ysa, foydadan holi bo'lmaydi.

To'qqizinchi sinfda Bobur ijodiga ajratilgan soatlarning salmoqli qismida shoir shariyatini o'rganish ko'zda tutiladi.

Turkiy she'riyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan, ayni paytda zullisonaynlik an'anasini unutmagan Boburning lirik merosi va g'azaliyotiga **ikki soat** ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. **Birinchi soat** uchun ushbu tarzda pedagogik maqsadlar belgilab olinadi: **a) tarbiyaviy maqsad** – o'quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash; **b) ta'limiy maqsad** – Bobur lirikasining xususiyatlari bilan tanishtirish, g'azallarini tahlillash; **d) rivojlantirish maqsadi** – hasbi hol she'rlarni sharhlash malakasini shakllantirish va rivojlantirish.

She'riyati haqidagi umumiy ma'lumotlar darslikda berildi. Ikki tilda ijod etganligi, lekin ona tilidagi ijodi salmoqli va she'riyatining asosini tashkil etishi, ikki devon tuzganligi, ulardan biri – “Kobul devoni” topilmagani, lirikasida qo'llagan janrlar va boshqa tafsilotlar bayon etiladi. Bobur she'riyatining asosiy xususiyatlaridan biri uning hasbi hol xarakterida ekanligidir. O'qituvchi avvalo “hasbi hol” nimani anglatishini o'quvchilardan so'rash orqali ularning bu tushuncha ma'nosini qay darajada bilishini aniqlab oladi. Zarurat bo'lsa, “hasbi hol” o'z ahvolini, turmush yoki taqdirini bayon etish ma'nolarini anglatishi tushuntiriladi. Boburning hasbi hol she'rlari shoir hayotining muayyan bir lavhasi bilan bog'lanadi. Darslikda “Topmadim” g'azali hamda “kishi” radifli ruboiysining yozilishi tarixi qisqacha bayon etildi. Shoirning mashhur “Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu” g'azalining ham o'ziga xos yaratilish tarixi borligi manbalarda qayd etiladi. Bu g'azal 1507-yili Hirot – Qobul yo'lida yoziladi.

Shayboniyxon Xurosonni zabt etishga kirishib, Balxni qamal qiladi. Husayn Boyqaro da'vati bilan Bobur ham Kobuldan (u shu paytda Kobul hukmdori edi) Balxga yordamga yo'l oladi. Biroq 1506- yilning mayida keksa Husayn Boyqaro vafot etadi. Ko'zga ko'ringan temuriyzodalar Shayboniyga qarshi kuchlarini birlashtirish uchun 1506- yilning 27- oktabrida Murg'obda uchrashadilar. Qishni shu atrofda o'tkazib, ko'klamda Shayboniyxon ustiga yurishga qaror qilinadi. Bobur Badiuzzamon va Muzaffar mirzolar taklifi bilan Hirotga boradi. Husayn Boyqaro maqbarasida bo'lib, fotiha o'qiydi. Qarindoshlar bilan ko'rishadi. Shahar bilan tanishadi. Alisherbek uyida bir muddat yashaydi.

Lekin mezbolar Boburga munosib muomala qilmaydilar. Shu yerda qishni o'tkaza qoling, deydi u kerakli narsa va joy ko'rsatmaydilar. Qish kirib, tog'larga qor tushadi. Qishlik ehtiyoji kuchayib boradi. Kobulning xavotiri qo'shiladi. 24- dekabr kuni Bobur, uni Hirotda taklif qilgan mirzolarining hech biriga ochiq aytmay, qishloqlarni aylanish bahonasi bilan yo'lga tushadi. O'sha paytlari Hirotdan Kobulga ikki yo'l bo'lgan. Biri – Qandahor, ikkinchisi Hazora yo'li. Hazora yo'li 1000 chaqirim, Qandahor – 1846 chaqirim. Qandahor yo'li uzoq, lekin tinch. Hazora – qisqa, xatarli. Boburning yaqinlaridan Qosimbek Hazora yo'lini tanlaydi. Qor kuchayib boradi. Charokdon degan manzildan o'tgach, qor uzangidan yuqori chiqib, otlar yurolmay qoladi. Bobur boshchiligida yayov, otlarning oldiga tushib, qor tepib, yo'l ochadilar. Ko'p o'tmay, yo'l butunlay yo'qoladi. Yo'l ko'rsatadigan biror kishi topilmaydi.

Hamma yoq oppoq qor. Yurish tobora og'irlashib boradi. Qor kuchaygandan kuchayadi. Havoli Qutiy degan joyda esa tamom to'xtab qoladilar. Hammani qor tagida qolib, nobud bo'lish vahimasi bosadi. Oyoq ustida tik turgancha tong ottiradilar.

Eslatilgan g'azalning matla'i o'sha kunlarda shoirning tilida aylangan edi:

Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu?!

Xasta ko'nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?!

Bobur va uning mulozimlari tasodif bilan (Havoli Qutiy g'orida 50—60 kishi joy bo'lgulik boshpanaga duch keladilar) omon qoladilar. Lekin “charxning javr-u jafosi” tamom bo'lmaydi. Kobulda uni yangi xiyonat kutadi. Yana qarindoshlar pand beradilar. Xolasi Nigorxonimning eri, Boburning pochchasi bo'lmish Muhammad Husayn uni Hirotda qamoqqa olibdilar, deb gap tarqatadi va Kobuldagi mo'g'ul askarlarini o'ziga og'dirib, Mirzaxon deganni podshoh kilib ko'taradi. Shunday qilib tabiat ofatidan omon qolgan Bobur qarindoshlaridan tarkib topgan fitnachilar suiqasdigacha duch keladi.

She'rdagi "charx" – dunyoning "jaf"idan mana shunday hayotiy mazmunga ega. Bu hamkasblarimiz uchun qo'shimcha ma'lumot - o'zni bilan foydalanishlari mumkin.

Ba'zan bunday biografik chizgilar oshiqona kayfiyatdagi satrlar bilan almashinib kelishi darslikda "Qaro zulfung firoqida parishon ro'zgorim bor" g'azali misolida ko'rsatildi. Uni shunchaki o'qib yoki o'qitib qo'ymasdan mashg'ulotda o'quvchilar bilan baytma-bayt tahlil qilinishi lozim. Darslikda berilgan "Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur" g'azalini tahlil qilish asnosida ham muhabbat kechinmalarining vatan firoqiga uyg'unlashib ketganligini kuzatish mumkin.

Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur.

She'r ikki xil – zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) ma'no qatlamlarida tahlil qilinadi. Zohiriy ma'no – she'rning ko'zga ko'rinib turgan, bir qarashda ilg'ab olinadigan, muallifi kimligidan qat'iy nazar mavjud an'analarga ko'ra chiqariladigan mazmundir. Botiniy ma'no esa she'r (yoki umuman matn)dagi tagma'no bo'lib, shoirning taqdiri yoki o'ziga xos dunyoqarashini aks ettirgan ichki mazmundir. Mazkur g'azalda lirik qahramon ko'nglining nega gul g'unchasidek tah-batah qon ekani matla'ning o'zidan anglashilmaydi. Zohiriy ma'noga ko'ra keyingi baytlar mazmunidan bu holat ma'shuqa tufayli ekanligi oydinlashadi: Ma'shuqa hajrida mening ko'nglim gul g'unchasidek qon bo'lgan. Misradagi "tah-batah" so'zi "qon"ning sifatlovchisi bo'lishi bilan birga ichki qiynoqlarni, ruhiy ezilishlarni kuchaytiruvchi vosita ham bo'lib kelmoqda. Nima uchun oshiq ko'ngli g'unchaga o'xshatiladi? Chunki gul bo'lib ochilmagan g'unchaning bag'ri qon bo'ladi degan shoirona izoh bor bu yerda, qachon u ochilsa go'yo baxti ham ochiladi. Agar g'uncha bir bahor mavsumida gul bo'lib ochilsa, oshiq ko'nglining esa yuz ming bahor bo'lganda ham ochilmog'iga imkon yo'q. Chunki u ma'shuqasidan ayru tushgan.

Agar ul qoshi yosiz bog' gashtini orzu qilsam,
Ko'zimga o'qdur sarv-u ko'ngulga g'uncha paykondur.

Agar qoshi yoydek bo'lgan yorsiz bog'ni sayr qilishni orzu qilsam, bu sadoqatsizligim uchun u yerda menga jazo tayin: sarv ko'zimga o'qdek sanchiladi, ko'nglimga g'uncha paykon bo'lib botadi. Bular – oshiqona dil izhorlari. G'azalda ikki obraz ishtirok etgan: oshiq va ma'shuqa. Zohiriy ma'noda ular insonlarni, aytaylik, oshiq – yigit va ma'shuqa – qizni gavdalandiradi. Endi baytlarning botiniy ma'nosiga nazar tashlaylik. Bobur she'riyatida tagma'no uning taqdiridan kelib chiqadi. Binobarin obrazlarning ma'nolari ham shu bilan bog'liq holda yangi ma'no kasb etadi. O'qituvchi darsda "Boburning taqdiridan kelib chiqsak, botiniy ma'noga ko'ra Yor obrazi ushbu g'azalda kim yoki nima bo'lishi mumkin?" degan savolni o'rta tashlaydi. Tajribada o'quvchilar bu savolga hech qiynalmay javob topganiga guvoh bo'ldik. Ular botiniy ma'noga ko'ra Yor obrazi orqali Vatan nazarda tutilganligini tez anglaydilar. Birinchi misrada Vatanidan ayrilgan shoir ko'ngli furqat tufayli qonga to'lgan. Ikkinchi misradagi "ochilmog'i ne imkondur" iborasi ilojsizlikni, yurtga qaytishning imkoni yo'qligini ifodalaydi. Buni o'qituvchi shundoq aytib qo'ymasdan savol-javoblar vositasida o'quvchilarni izlanishlar orqali shu fikrga kelishlariga yo'llashi lozim. Ikkinchi baytning ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin: Vatandan yiroqda bog'ni (yoki o'zga yurtlarni) sayr etar bo'lsam, ko'zimga sarv o'q bo'lib, g'uncha paykon bo'lib qadaladi. Nima uchun? degan savol tug'iladi. Chunki bundagi sarv o'z vatanidagi daraxtlarni yodga soladi, gul, g'unchalar yurtida qolgan chamanzorni eslatadi va shoir yuragida og'riqli sog'inchni uyg'otadi.

Shu taxlit g'azal oxirigacha zohiriy va botiniy ma'nolarda tahlillanishi kerak. Faqat uchinchi baytdagi "Yuza gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur" misrasini botiniy ma'noda izohlashga o'quvchilar taraddudlanib qolishlari mumkin. Bu yerda mazkur iboralar yurt go'zalligi, vatan chiroyining shartli ifodasi o'laroq qo'llanayotganligini tushuntirish kerak.

Bobur lirikasiga bag‘ishlangan **ikkinchi soat** uchun darslikda uchta g‘azal berilgan. Bu degani albatta bir soatda uchala g‘azalni tahlil qilish shart degani emas. Kimdir (albatta tajribali va bilimdon muallimlar) bir soatda bitta g‘azalni har tomonlama chuqur tahlil qilib, o‘quvchini she‘riyatning sehrli olamiga ichkariroq olib kiradi. Har bir so‘z, ibora va jumlaning matnda bajarayotgan badiiy-estetik, g‘oyaviy vazifasini sharhlaydi va sharhlatadi. Yana boshqa o‘qituvchi bir darsda ikkita, boshqasi uchala g‘azalni ham tahlil qiladi. Lekin gap sonda emas, sifatda ekanligini yodda tutish kerak.

“Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor mushkuldur” g‘azali sof oshiqona izhor bilan boshlanadi.

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,
Sening birla chiqishmoqlik dag‘i bisyor mushkuldur.

Oshiq uchun yorsiz sabr qilishlik g‘oyat mushkul, lekin qizig‘i shundaki, u bilan chiqishmoqlik ham yanada dushvor. Xalqimiz orasida “bir-birini ko‘rolmaydi, bir-birisiz turolmaydi” degan naql bor. Oshiq-ma’shuqlarning munosabati shunga yaqinroq.

Mijozing nozik-u sen tund, men bir beadab telba,
Senga holimni qilmoq, ey pari, izhor mushkuldur.

Ma’shuqaning tab‘i (mijozi) nozik, oshiqni ko‘rganda o‘zini tund ko‘rsatadi, go‘yo uni yoqtirmaydi. Bu ma’shuqaning noz-firog‘i. Shu orqali oshig‘ini qiynaydi, qiynoq bilan sadoqatini sinaydi. Oshiq bechora uning oldida o‘zini qanday tutishni bilmaydi, beixtiyor telbalarcha beadablik ham qilib qo‘yadi. Bundan o‘zini noqulay sezganligi uchun holini izhor qilish yanada mushkullashadi. Uchinchi baytdan ishqiy kechinmalar hasbi hol tusini ola boshlaydi.

Ne osig' nola-u faryod xob olud baxtimdin,
Bu unlar birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur.

Osig' – foyda, xob olud – uyqudagi, un – ovoz ma'nolarida kelayotganligini o'quvchilarga lug'at yordamida anglatiladi. Uyqudagi baxtinga nola-yu faryodlar qilishdan foyda yo'q. Bu mungli unlar bilan uni (baxtimni) uyg'otish (bedor qilmoq) mushkul. Boburning bir qator she'rlarida "uyqudagi baxt" ifodasi uchraydi. Uni baxtsizlik deb tushunmaslik kerak. Chunki baxtsizlik – baxtning yo'qligi. Bobur o'z baxtini yo'q deb bilmaydi. Uning baxti bor, lekin uyg'oq emas. Yo'qdan ko'ra uyg'oq bo'lsa-da baxtning borligi umid nishonasi. Umid esa Islomga ko'ra iymon belgisi sanaladi. Shundan Bobur o'zini baxtsiz sanamaydi, umidsizlikka berilmaydi. Nima uchun baxti uyqudaligini o'quvchilarga izohlatish lozim. Buni ular idrok etadilar.

Manga osondur bo'lsa, agar yuz ming tuman dushman,
Vale bo'lmak jahonda, ey ko'ngul, bisyor mushkuldur.

Agar yuz ming tuman dushman bo'lsa ham ularga bas kelish menga oson, lekin, ey ko'nglim, bu jahonda bo'lmoqlik menga bisyor mushkulliklarni keltirdi. Boburning umrbayonidan anglashildiki, haqiqatan u minglab, o'n minglab, hatto yuz ming lashkarli dushman qo'shini bilan yuzma-yuz kelib, ularni yenga oldi. Lekin kajraftor dunyoda hali bola yoshidan boshlab sitamlar, sargardonliklar, xiyonat-u xo'rliklar ko'rdi, Vatanidan judo bo'ldi va bu tubanliklar oldida ojiz qoldi. Shoir bejiz ko'ngliga murojaat qilmayapti. Chunki u – ko'ngil kishisi, borliqni ko'ngil ko'zi bilan ko'radi va idrok etadi. Bunday odamlar esa nafaqat o'zining, o'zgalarning dardini ham ko'ngilga yaqin oladi.

Visolinkim tilarsen nozini xush tortqil, Bobur
Ki, olam bog'ida topmoq guli bexor mushkuldur.

Ey Bobur, agar visolini tilasang nozini ham xush bilginki, bu olamda birorta tikansiz (bexor) gulni topish mushkuldir. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, lirik qahramon tilayotgan visolni bir necha ma'noda sharhlash mumkin: oshiq bilan goh urishib, goh yarashib noz qilayotgan ma'shuqa visoli, ko'z ochishga shoshmayotgan uyqudagi baxtning uyg'onishi, davr hodisalari to'foni tufayli shoir mahrum bo'lgan Vatan visoli. Tahlilda bu talqinlarning qaysi biri nazarda tutilmasin va hatto ular birgalikda olinib tushunilsa ham ayni haqiqat ekanligini aytib, muallim g'azal tahliliga yakun yasashi mumkin.

Shoirning "topilmas" radifli g'azaliga bir so'z bilan "soddalik va yuksak badiiylik uyg'unligi" deb ta'rif bersa bo'ladi. Unda xalq so'zlashuv tiliga yaqinlik yaqqol sezilib turadi, xalqona ifodalardan zargarona foydalanish san'at darajasiga ko'tarilgan. Birinchi baytiga e'tibor qaratamiz:

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek sanga bir zori vafodor topilmas.

Bu misralarda favqulodda yangi tashbeh yoki mubolag'a kabilar yo'q. O'zaro suhbatda oddiy so'zlar bilan dil izhor etilayotganga o'xshaydi. Bu bayt albatta sinf taxtasiga yozib tahlil qilinishi kerak, deb o'ylaymiz. Chunki undagi tarse' san'atini o'quvchilar ko'zlari bilan ko'rishlari kerak. Tahlilga o'tishdan oldin tarse' badiiy vositasi haqida tushuncha beriladi. O'quvchilar o'z daftarlariga uning ta'rifini qayd etib qo'yadilar: baytdagi ustma-ost joylashgan so'zlarning qofiyadosh, vazndosh, ohangdosh bo'lib kelishi tarse' san'ati deyiladi. Tushuncha berilgach, bolalarga shunday topshiriq beriladi: misralardagi joylashishiga ko'ra qaysi so'zlar tarse'ni hosil qilayotganligini toping. Ularning javoblarini ola borib, o'zaro tarse'ni hosil qilayotgan so'zlar sinf taxtasida yo'nalishtirishli chiziqlar bilan tutashtiriladi:

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
↕ ↕ ↕ ↕ ↕ ↕
Mendek sanga bir zori vafodor topilmas.

Baytda “sendek - mendek”, “menga - senga”, “yori - zori”, “jafokor - vafodor” soʻzlari qofiyadosh, vazndosh hamda ohangdosh boʻlib kelgan, “bir - bir”, “topilmas - topilmas” soʻzlari qofiyadosh emas, radif boʻlganligi uchun bir soʻz takrorlanyapti. Lekin ularning vazndosh va ohangdoshligi bor. Demak, birinchi va ikkinchi misralardagi barcha soʻzlar tarseʼni yuzaga keltirishda ishtirok etgan. Yorning jafokorligi bilan oshiq vafodorligi oʻrtasidagi qarama-qarshilik tazod sanʼati, oʻzini va maʼshuqani qiyoslash orqali tashbihni ham hosil qilayotganligiga oʻquvchilar diqqati tortiladi.

Ikkinchi baytda tashbih sanʼati qoʻllangan: **“Bu shakl-u shamoyil bila xud hur-u parisen Kim, jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas”**. Maʼshuqa oʻzining shakl-u shamoyili bilan hur-u parilarga oʻxshatiladiki, odamzod ichida bu darajada oʻxshashlik boshqa topilmaydi. Bu yerda ***bashar ichra bu miqdor topilmas*** birikmasi “olamda yoʻq” yoki “dunyoda topilmaydi” degan xalq iboralarining shoirona isloh qilinganidir.

Agʻyor koʻz olida-u ul yor ayon yoʻq,

Gʻam xori koʻngul ichra-yu gʻamxor topilmas.

Sheʼriyatning soʻz oʻyini boʻlmish tajnis sanʼatidan bu baytda mohirona foydalanilgan. Lekin undan ham oldin baytga ajib musiqiylik baxsh etayotgan holatga oʻquvchilar diqqati jalb etilishi lozim. Birinchi misra boshidagi “agʻyor” hamda shu misra oʻrtasidagi “ul yor”; ikkinchi misra boshidagi “gʻam xori” bilan oʻrtada kelayotgan “gʻamxor” soʻzi takrorlari gʻazalda xushohanglikni yuzaga keltirgan. Ikkinchi baytdagi takror ayni paytda tajnisning goʻzal namunasi: gʻam xori (gʻamning tikani) koʻngilda, lekin gʻamni aritguvchi gʻamxor (gʻamxoʻr) yoʻq.

Toʻrtinchi baytdagi “gul zor” (Ey gul, meni zor etmaki... jumlasida) hamda “gulzor” soʻzlari, maqtaʼdagi “yor” shakldoshlari ham yuqoridagi kabi poetik vazifa bajarayotganligiga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq boʻladi.

“Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatlari” g‘azali laf va nashr san‘ati asosiga qurilgan. Shuning uchun tahlildan oldin bu she‘riy san‘at to‘g‘risida tushuncha berib o‘tmoq kerak. Laf va nashr (yig‘ish va yoyish) ma‘nosi shuki, baytning birinchi misrasida birin-ketin bir nechta tushuncha yoki tasvir beriladi, ikkinchi misrada esa ularning har biriga shaklan yoki mazmunan o‘xshash, yaqin tushuncha va tasvirlar keltiriladi. Shu ma‘lumot asosida matla‘ tahlil qilinadi:

Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatlari,
She‘r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Birinchi misrada uch tushuncha berilgan: 1) yoz fasli; 2) yor vasli; 3) do‘stlarning suhbatlari. Ikkinchi misrada ularga daxldor uch narsa keltirilmoqda: 1) she‘r bahsi; 2) ishq dardi; 3) bodaning kayfiyati.

Bu tushunchalar o‘zaro quyidagi juftliklarni hosil qiladi: 1) yoz fasli – bodaning kayfiyati; 2) yor vasli – ishq dardi; 3) do‘stlarning suhbatlari – she‘r bahsi.

Keyingi uch baytda bu juftliklarning mazmun-mohiyati izohlanadi, yoyib beriladi. Bu ularda laf (yig‘ish) yo‘q, faqat nashr (yoyish) borligini ko‘rsatadi. Maqta‘da barcha g‘azallarda bo‘lgani kabi fikr, tasvirlarga xulosa yasaladi:

Gar bu uch ishni muvofiq topsang, ul uch vaqt ila,
Mundin ortiq bo‘lmag‘ay, Bobur, jahonning ishrati.

Kim mazkur ishlarni aytilgan uch vaqtda o‘zaro muvofiqlashtira olsa, unga jahonning ishrati berilgan bo‘ladi.

Bobur g‘azallaridan kamida bittasini yod olishni uyga topshiriq qilib beriladi.

Navbatdagi **bir soat** davomida Bobur ruboiylari o‘rganiladi. 5-sinfda ruboiy haqida tushuncha berilganligi uchun savollar vositasida u to‘g‘risidagi ma‘lumotlar eslab olinadi. Ruboiy arabcha so‘z bo‘lib, to‘rtlik degan ma‘noni anglatib, tugal fikrga, mustaqil mazmunga ega bo‘lgan, aruzning hazaj bahrida “axram” va “axrab” (maf‘uvlun va maf‘uvlu) shoxchasida yozilishini o‘quvchilar biladilar.

Qo‘shimcha ma’lumot sifatida vazn jihatdan 24 ko‘rinishga egaligini qayd etish mumkin.

O‘zbek adabiyotida g‘azal singari ruboiyni ham eng ko‘p va eng xo‘b yozgan Alisher Navoiydir. Uning ruboiylari miqdori 500 dan ortiq. Boburniki u qadar ko‘p emas, shunga qaramasdan, uning o‘zbek ruboiychiligida alohida o‘rni bor. Tahlilga o‘tishdan oldin o‘qituvchi Bobur ruboiyyotiga xos ikki jihatni ta’kidlab o‘tishi lozim. Shoir, birinchidan, tabiatan ijtimoiy-falsafiy bo‘lgan ruboiy janriga kundalik, hayotiy mazmunni kiritdi. Ikkinchidan, g‘azallarida bo‘lgani kabi uning ko‘pgina ruboiylari sarson-sargardon kechgan hayotining ko‘zgusi, ko‘rgan-kechirganlarining iqrornomalariday taassurot qoldiradi. Bobur ruboiylarining tili, ifodasining soddaligi, samimiyati kitobxonni o‘ziga bog‘lab oladi.

Darslikdagi “Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur”, “Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen” hamda “Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi” ruboiylari hasbi hol xarakterida bo‘lib, ular afg‘on yurtida, hind elida tug‘ilgan yeridan uzoqdagi shoirning Vatan sog‘inchi, yurtga talpinishlarini ifoda etgan satrlardir.

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig‘ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat qildi Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Ushbu ruboiyda Boburning shaxs sifatidagi ma’naviy fazilatlari, shoh sifatida himmatining balandligi hamda Vatanga qaytish orzusi va bu orzuga yetishishga ishonchi sodd va samimiy tarzda aks etgan. “Beqayd” biror yer yoki narsaga bog‘liq bo‘lmaslik, shu kabi narsalardan ozod bo‘lishlikdir. Hukmdorlar o‘z mamlakatiga qayd etilgan – bog‘langan bo‘ladilar, boshqa yurtlarni bosib olsalar, u yerda beqayd – doimiy emaslar. O‘zga yerning siym-zarini olib, yana yurtiga qaytish taraddudida bo‘ladi. Bobur Afg‘onistonda o‘zini beqayd bilsa ham, ayrim hukmdorlar kabi “xarobi siym”, “mol yig‘ishtirur laim” bo‘lmadi. Uning himmati mol-dunyodan baland edi. Kobuldagi hayotini muqim ermasman deydiki, bu uning

doimo vataniga qaytish o'yida bo'lganligidan darak beradi. Lekin bu ko'ngil tilagi unga armon bo'lib qolganligini o'quvchilarga quyidagi ruboiy orqali anglatiladi:

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikkisi muyassar bo'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Bobur ruboiylarining islom dini, tasavvuf bilan bog'liqligini ham adabiyot muallimi e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Shu o'rinda Bobur ijodining tasavvuf ta'limotiga munosabati adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov tomonidan tadqiq etilganligini eslatib o'tish o'rinli bo'ladi. Quyidagi ruboiyga e'tibor qarataylik:

Jonimda mening hayoti jonim sensen,
Jismimda mening ruhi ravonim sensen.
Boburni seningdek o'zga yori azizi,
Alqissaki, umri jovidonim sensen.

She'r sodda tilda, ravon uslubda yozilgan. Tushunarsiz so'z yo'q deyish mumkin. "Jovidon" so'zining ma'nosini o'quvchilar unutgan bo'lsalar, uning "abadiy" degan ma'noni eslatib qo'yish kifoya. Anglashiladiki, "umri jovidon" abadiy umr demakdir. Ruboiy bir qarashda sevikli yorga murojaat, unga bo'lgan tuyg'ular ifodasi ekani ko'rinib turibdi. Botiniga nazar tashlansa, o'z Yaratuvchisiga dildan ko'ngil qo'ygan islom kishisining ishq izhorini tuyamiz. Chunki iymoni but, o'zligini tanigan kishigina dunyo va oxirat xayrliklari manbai bo'lmish Xoliq Egani "hayoti jonim", "ruhi ravonim", "umri jovidonim" deya e'zoz etadi. Xalqimiz orasida katta-yu kichikka yod bo'lib ketgan Boburning

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yamonliq hargiz
Har kimki, yamon bo'lsa, jazo topqusidur

ruboiysi aslida Qur'oniy oyatlar ta'sirida yozilganligini o'quvchiga uqtirib o'tish joiz. Bu ruboiy Qur'onning "Zalzala" surasidagi "fa man ya'mal misqola zarrothin

xoyron yaro va man ya'mal misqola zarrotin sharron yaro" (Kim misqolchalik xayrli ish qilsa ham va kim misqolcha gunoh qilsa ham o'z ajrini oladi) oyatining she'riy talqinidir.

Darsliklarda odatda an'anaviy mavzu va ohanglarda yozilgan ruboiylaridan namunalar beriladi. Ayniqsa, muhabbat mavzuidagi ruboiylarda Boburning hassos hamda zargar shoir ekanligi namoyon bo'ladi. Quyidagi ruboiy tahlilida buning isbotini ko'rish mumkin:

Raftori-yu qaddig'a ravonim sadqa,
Bir boqishig'a ikki jahonim sadqa,
Og'zi-yu belig'a bud-u nobudim sarf,
Ko'zi-yu labig'a jism-u jonim sadqa.

Ruboiy hazajning axrab shoxchasida yozilgan: Maf'uvlu-mafo'iylu-mafo'iylu fauvl; Maf'uvlu-mafo'iylu-mafo'iylu-fauvl.

Quyidagicha tahlil namunasini hurmatli hamkasblarimizga taklif etamiz.

Ruboiyda mazmuniga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan "ravonim", "jahonim", "jonim" so'zlari qofiyadosh, "sadqa" so'zi radif bo'lib kelyapti. Misralardagi tuyg'uni anglash, mazmunni tushunib olish uchun o'quvchilarga tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ma'nosi beriladi. "Raftor" – yurish, "ravon" so'zida ham yurish ma'nosi bor. Lekin u holda ma'no chiqmaydi. "Ravon"ning yana bir ma'nosi jondir. Endi o'rniga qo'yib qo'ramiz: Yurishi va qaddi-qomatiga jonim fido bo'lsin. Bunda ma'no bor. Ikkinchi misradagi ayrim so'zlarga diqqat qilaylik. "Bir", "ikki" so'zlari orasida tazod (zidlik) bor, oz-ko'p ma'nolari singdirilgan. Nega "ikki jahon" ekanligini bolalarning o'zlari ham sharhlay oladi. Chunki islomiy tushunchaga ko'ra ikki (biz yashab turgan va narigi) dunyo bor. "Boqish" va "jahon" so'zlarida ham ma'lum bog'lanish topish mumkin (jahonga boqiladi). Demak, misrada so'zlar shu qadar tanlab, hamma ma'no ohanglari ko'zda tutib ishlatilganki, bu yuksak san'atkorlikdan nishona ekanligi tahlilda o'qituvchi tomonidan alohida ta'kidlanishi lozim.

“Bud-u nobud” bor-yo‘q degani. Nega shoir ma’shuqaning og‘zi va beliga bor-yo‘g‘ini bag‘ishlamoqchi? Go‘zalligi uchun, albatta. Lekin bu yerda boshqa gap ham bor. Mumtoz adabiyotda noziklik go‘zallik mezonidir. Og‘izning torligi, belning ingichkaligi mubolag‘a bilan shu qadar kichraytiriladiki, go‘yo go‘zalning bu ikki a‘zosi – og‘zi va belining bor yoki yo‘qligiga shoirona lutf bilan shak keltiriladi. Bu qarashdan mohirona foydalangan Bobur “bor-yo‘qligi noma’lum bo‘lgan bel va og‘ziga mening bor-u yo‘g‘im (davlatim, hayotim) sarf bo‘lsin”, deb lutf qiladi.

Keyingi she’rlarni shu taxlit o‘rganish asnosida Bobur ruboiylari mavzuiga ko‘ra emas, badiiyati jihatidan ham alohida e’tiborga sazovorligiga o‘quvchilarda qanoat hosil qilinadi.

“BOBURNOMA”NI O‘RGANISH

To‘qqizinchi sinf darsligida “Boburnoma”dan olingan parchani o‘rgatish va memuar asar to‘g‘risida ma’lumot berish uchun ikki soat sarflash samarali bo‘ladi. Birinchi soatda bu asarning yaratilishi tarixi, yo‘nalishi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida darslikda bo‘lmagan ma’lumotlarni berish ma’qul. Shuningdek, asardan olingan “Andijon tasviri” parchasi o‘qiladi. Unda Farg‘onaning poytaxti Andijon, uning o‘rni, tabiati, odamlari juda nafis tasvirlangan. Muallif bu haqda yozar ekan, masalaga faqat tarixiy, jo‘g‘rofiy nazar bilan qaramaydi. Shuningdek, Bobur Andijon tabiatiga xos jihatlarni bir chetdan sanash yo‘lidan bormaydi, balki qasabaga xos alohida qirralarga to‘xtaladi.

Boburning bayon uslubi mazmunini o‘qitishda o‘qituvchidan ehtiyotkor bo‘lishni talab qilinadi. Olaylik, “Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas” jumllarida muallif uslubining o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Bu yerda Farg‘onaning Samarqand va Xo‘jand tomoni tekislik, qishda ham harakatlanishga qulayligiga ishora qilingan. E’tibor tortilishi lozim bo‘lgan jihat shuki, Bobur qaysi hudud, viloyat va shahar to‘g‘risida fikr yuritisa, uni chetdan emas, ayni paytda

xuddi uning o‘ramida, uning ichida turgan kabi ta’riflaydi. O‘qituvchi bu o‘rinda “Boburnoma”dan quyidagi misolni o‘qib (parcha darslikda berilmagan), tarbiyalanuvchilar diqqatini tortishi o‘rinli bo‘ladi: Kandibodom (hozirgi Konibodom)ni tasvirlab turib, “Hamisha bu dashtta yel bordur. Marg‘inong‘akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur” deydi. Bobur “hamisha u yerdin” emas, go‘yo Konibodomda turgandek, “mundin” (bu yerdan) deb yozadi. Xolbuki, muallif bu satrlarni yozayotganda vatandan ancha uzoqlarda edi.

Bu ma’lumotlar berilgach, darslikdan tahlil qilinayotgan jumalarga qaytiladi. Ma’lumki, kishi biror yerda tursa, u yerga yaqinlashayotganlarga nisbatan “kelmoq” (keldi, kelyapti) fe’lini qo‘llaydi. Shu bois zikr etilgan parchada muallif (uni qayerda bitgan bo‘lsa ham) go‘yo Farg‘onada turgan kabi “yog‘iy kela olmas” deydi. Asar mutolaasida shu jihat doimo o‘quvchi yodida turishi lozimligi uqtiriladi.

“Qovun mahali poliz boshida qovun sotmoq rasm emas” jumlasini orqali berilgan xabarni o‘quvchilarga alohida urg‘u bilan tushuntirmoq kerak. Unda adib shu yaqin yillargacha davom etib kelgan udum – dehqonlarimizning hosil cho‘g‘i qanday bo‘lishidan, ko‘p yo oz yetishtirilishidan qat’iy nazar qovunni xuddi bozordagi kabi polizda donalab sotishdan or va irim qilishlarini nazarda tutgan edi. Poliz boshida yo ushur berilgan yoki xudo yo‘lida ehson qilingan yoxud o‘zbekona jo‘mardlik bilan kelgan odam qovun so‘yilib, mehmon qilingan, siylangan. Milliy ma’naviyatimizga daxldor bo‘lgan o‘zbek dehqonlarining mazkur tanti udumini kengroq izohlanishi ma’qul. Shuningdek, “Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo‘lmas” gapidagi “noshpoti”ni (hozirda nashvati) nok so‘zining ma’nodoshi deb emas, balki nokning Andijonda yaxshi bo‘ladigan turi ekanligidan o‘quvchilar xabardor qilinishi kerak.

“Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hiriya nash‘u namo topibtur, bu til biladur” jumalari bugungi kun kishisiga leksik hamda sintaktik jihatdan bir qadar “begona” bo‘lganligi tufayli ularni tushunishda o‘quvchilar bir oz qiynalishlari tajribalarda kuzatilmoqda. O‘quvchilar bugungi leksik ma’nolaridan kelib chiqib, “qalam”ni

yozuv quroli, “rost”ni to‘g‘ri, chin, yolg‘on bo‘lmagan ma’nolarida qabul qiladilar va bundan ma’no anglashilmaydi. Muallim bu yerda “qalam” – adabiy til, “rost” – muvofiq degan ma’nolarda qo‘llanganligini uqtirishi kerak. Shunda o‘smirlar jumladan elining lafzi (so‘zlashuv nutqi) adabiy tilga muvofiq, ya’ni bu yerda odamlar adabiy tilda gaplashadilar ma’nosini to‘g‘ri anglab etadilar.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, shu jumlar oxiridagi “biladur” so‘zini o‘quvchilar aksar hollarda “bilmoq” fe’li deb o‘ylaydilar va “bu tilni biladi” deb tushunadilar. Natijada ma’no chiqarolmay qiynaladilar. Muallim albatta bu so‘z “bilan” ko‘makchisining arxaik shakli ekanligiga izoh berishi lozim. Shunda lug‘at yordamida o‘quvchilar quyidagi jummalarni “qayta tiklaydilar”: “Elining so‘zlashuv tili adabiy til bilan muvofiqdir. Shuning uchunki, Mir Alisher Navoiyning asarlari qaysiki Hirotda shuhrat topgandir, shu til bilandir”. O‘qituvchi bolalardan ushbu jummalarni hozirgi adabiy tilning so‘zlashuv uslubida qanday bo‘lishi kerakligini so‘rashi lozim. Albatta, ular mazkur jummalarni hozirda “Andijonliklar adabiy tilda so‘zlashadi. Buning dalili shuki, Mir Alisher Navoiyning Hirotda yozilib shuhrat topgan asarlari bu til (sheva)da yaratilgandir” tarzida bo‘lishi mumkinligini oson fahmlaydilar.

“Elining orasida husn xayli bordur. Yusuf Hojakim musiqasida mashhurdur, Andijoniydur” jumlalariga hurmatli hamkasblarimiz diqqatini tortamiz. Birinchi gapdagi “husn xayli” birikmasi “Boburnoma”ning qator nashrlarida “husn xeyli” tarzida berilgan. Hozirgi darslikda “husn xayli” shaklida berildi. Lug‘atlarda “husn” go‘zallik, chiroy, “xeyli” ancha, juda deb izohlangan. Shuning uchun birikmadan “go‘zallik ancha bor”, ya’ni chiroyli odamlar ko‘p degan ma’no anglashilganday tuyuladi. Lekin Boburning Andijonda chiroyli odamlar ko‘p deb yozishi mumkin emasligini har bir o‘zbek kishisi biladi, his qiladi. Negaki go‘zallik tufayli ayollargina maqtalgan. Bobur yashagan davrda esa ayollarning nafaqat yuzi, ovozi ham satri avrat qilinar edi. Qolaversa, hamiyatli bir erkak o‘z xonadonidagi ayollarning go‘zalligi to‘g‘risida gapirib yurmaganidek, Bobur ham o‘z yurti ayollarining husni jamolini “Boburnoma”dek jiddiy asarda bozorga solmasdi. Erkaklar chiroyi hech mahal maqtaladigan, qayd etiladigan fazilat

bo‘lmagan. Shuning uchun hech bir asarda falon joy erlari chiroyli degan ta’rifga duch kelmaymiz. Xo‘sh, unda muallif bu ibora bilan nima demoqchi?

1960- yilgi nashrda Porso Shamsiyev domla bu iborani “husn xili bor” deb o‘qigan ekan. Unda umuman ma’no chiqarish qiyin bo‘lib qoladi. Arab yozuvida “xili”, “xeyli”, “xayli” so‘zlarining bir xil yozilishidan kelib chiqsak, mazkur birikma aslida “husn xayli” shaklida o‘qilishi lozimligi oydinlashadi. Husn “go‘zallik” ma’nosini beradi, go‘zallik esa san’at so‘zining ma’nodoshi. Xayl “ahl” ma’nosida keladi. Shundan kelib chiqib, “husn xayli”ni san’at ahli deb qabul qilish mumkin. Keyingi mashhur musiqashunos Yusuf Xoja haqida fikr ham bunga mos keladi.

“Havosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko‘p bo‘lur” jumalari ustida ham biroz o‘ylashga to‘g‘ri keladi. Lug‘atlarda, jumladan, “Navoiy asarlari lug‘ati”da “ufunat” “sassiqlik, badbo‘ylik” ma’nosini berishi ko‘rsatilgan. Shu bois barcha darsliklarda “Boburnoma”dan olingan parchalar uchun berilgan lug‘atlarda bu so‘z ayni shunday izohlanadi. “Boburnoma”ni mazkur lug‘atga tayanib o‘qigan o‘quvchi u paytlar (balki hozirda ham) Andijonning havosi sassiq, badbo‘y bo‘lgan ekan-da, deb o‘ylaydi. Biz lug‘atlarga murojaat etganimizda “ufunat”ga o‘zakdosh bo‘lgan “afinun”ning ruscha tarjimasi bo‘lmish “гнилой” so‘zining o‘zbekchada “sernam”, “rutubatli” ma’nolari ham borligi e’tiborimizni tortdi. Xo‘sh, Bobur mirzo ufunat deganda sassiqlik, badbo‘ylikni nazarda tutganmi yoki sernamlik, rutubatnimi? Bu borada bir fikrga kelish uchun asardagi tafsilotlar bilan bog‘liq ba’zi jihatlarga to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

Muallif Farg‘ona viloyati to‘g‘risida gapira turib, “Yetti pora qasabasi bor” deb yozadi. Darsda matn tahlil qilinar ekan, o‘qituvchidan “qasaba” so‘ziga aniqlik kiritish talab qilinadi. Qasaba lug‘atlarda va ularga suyanilgan adabiyotlarda (ayni paytda darsliklarda ham) shaharcha, shahar deb izohlangan. Shu bois aksar kitobxonlar Andijon, O‘sh, Isfara kabi qasabalar haqida gapirilganda shaharlarnigina tushunadilar. Aslida esa Bobur markazi shu shaharlar bo‘lgan ma’muriy-hududiy bo‘linishlarni nazarda tutgan. Uzoq-yaqin aholi bozor-o‘char kabi iqtisodiy, ilm olish kabi madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirish uchun tilga

olingan shaharlarga kelishgan. Jumladagi “pora” so‘zi bo‘lak, qism ma’nolarini anglatadiki, qasaba bu so‘z bilan birgalikda matnda ma’muriy hudud ma’nosiga to‘g‘ri kelishi bilinib turibdi. Har bir hudud (qasaba) aholi yashaydigan qishloq, ovullar, shuningdek, kimsa yashamaydigan to‘qay, chakalakzorlar, tog‘lik va tekisliklarni o‘z ichiga olgan. Andijon tasviridagi “Qovun mahali poliz boshida qovun sotmoq rasm emas”, Marg‘ilon to‘g‘risidagi “pur ne‘mat; anori va o‘rugi ko‘p xo‘b bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, “dona kalon” derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig‘idin andak choshni bor”, Xo‘jand haqidagi “Mevasi farovon va bisyor yaxshi bo‘lur” kabi jumlar qishloq va ovullar tavsifi bo‘lsa, “Ovi qushi dog‘i ko‘p bo‘lur, qirg‘ovuli behad semiz bo‘lur”, “Oq kiyik yovuqta bo‘lur” kabi tafsilotlar changalzor, to‘qaylarga tegishli. Boburning “Sohibi “Hidoya” Marg‘inonning Rushdon otliq kentidindur” deb yozishidan Burhoniddin Marg‘iloniyning ota yurti Rushdon (hozirgi Rishton tumani) ham Marg‘ilon qasabasiga tegishli bo‘lganligini bilishimiz mumkin. Andijon qasabasi hozirgi Asaka, Andijon tumanlaridan boshlab Baliqchi, Paxtaobod tumanlarigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Asosan Qoradaryo va qisman Norin daryosi atrofidagi bu hududda o‘sha davrlarda ko‘plab aholi punktlari bo‘lishi bilan birga ovloq to‘qaylar, ularga yondosh botqoqliklar talaygina joylarni egallagan. Kattagina bu ikki daryo, ular ta’sirida shakllangan har yer-har yerdagi jajji suv havzalari, botqoqliklar tufayli qasabaning aksariyat qismi havosida namgarchilik – ufunat yuqori bo‘lgan. “Kuzlar el ko‘p bezgak bo‘l”ishining sababi ham shundan ekanligi ma’lum bo‘ladi. Demak, “Havosining ufunati bor” jumlasini Andijon qasabasining sassiqligi, badbo‘yligini emas, balki sernam, rutubati borligini anglatadi desak, xato bo‘lmaydi. Bunga yana bir dalil shuki, muallif Xo‘jand tabiati haqida ham shunday yozadi: “Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko‘p bo‘lur. Andoq rivoyat qildilarkim, chupchuq bezgak bo‘lg‘ondur. Derlarkim, havosining taffuni shimoldag‘i tog‘ jihatidindur”. Parchadagi “mutaaffin”, “taffun” so‘zlari “ufunat” bilan o‘zakdosh va matnda bir ma’noni ifodalagani uchun lug‘atlarda ularni ham badbo‘ylik deb beriladi. E’tibor berilsa, yana havodagi ufunat bilan bezgakni qayd etmoqda. Bunga sabab qilib esa shimoldagi tog‘ deb izohlanmoqda. Ma’lumki,

biror joyning havosi tog‘ tufayli sassiq, badbo‘y bo‘lmaydi, balki uning ta’sirida namgarchilik yuqori bo‘lishi mumkin. Shuning uchun adabiyot muallimi mazkur jumalarni tushuntirganda Andijonda havosidagi sassiqlik, badbo‘ylik tufayli emas, balki nam ko‘p bo‘lgani uchun kuz faslida el orasida bezgak ko‘p bo‘lishini to‘g‘ri talqin etmog‘i kerak.

“Boburnoma”ni o‘rgatishga ajratilgan vaqtning ikkinchi soatida shartli ravishda “Samarqand tasviri” deb nomlangan o‘qiladi, izohlanadi, tahlil etiladi. Bu asarni shunchaki o‘qib ketish bilan didaktik maqsadga erishib bo‘lmaydi. Boburning nasriy ifoda yo‘sini zamiridagi badiiy ma’no kashf etilgandagina o‘quvchilar bu asarga qiziqib qolishlari mumkin.

O‘qituvchi Samarqand shahrining latifligi va “baldai mahfuz” – Alloh tomonidan saqlangan, muhofaza qilingan shahar ekanligi singari sifatlardan o‘quvchilarga ma’lumot beribgina qolmay, bu holning sabablari nimaligi “Boburnoma”da qanday ko‘rsatilganligi birgalikda izohlansa, bolalar darsga kuchliroq jalb etiladi. Muallif asarda Samarqandning Alloh tomonidan asralishi sababini ochiq yozmaydi. Balki shahar ahli islomni qabul qilgan vaqti, ularning pok mazhab egasi ekanligi hamda “Hazrati risolat zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim Movarounnahr din paydo bo‘lubtur, hech viloyattin ma’lum ermaskim, paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay” degan ma’lumotni keltiradi. Ma’lumki, o‘quvchilar juda nozikfahm bo‘lishadi. Agar ular mana shu bir-biriga aloqasizday tuyuluvchi holat tasviri nima uchun yonma-yon kelayotgani xususida o‘ylashga tutinsalar, Bobur aytmadan ishora qilgan sababni topib oladilar. Sahobalardan tortib qancha avliyolarning ruhlari Samarqandning saqlab qolinayotgani sababi anglashiladi.

O‘quvchilar Samarqand va Temurbek munosabatlari tasviriga alohida e’tibor bilan yondashish lozim. Aks holda Amir Temur tufayli Samarqand shuhrat topdimi yoki Samarqand hukmdori bo‘lgani uchun sohibqiron mashhur bo‘ldimmi degan savolga to‘g‘ri javob berolmay qolishlari mumkin.

“Boburnoma”ni o‘rganishga ham o‘ziga xos yondashuv talab etiladi. Jahon miqyosida keng e’tirofga sazozor bo‘lgan bu asarni yozilishidagi boburona uslubga

urg‘u berish dars mashg‘ulotining diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim. Boburning tasvir yo‘siniga xos xususiyatlardan biri shundan iboratki, u qaysi bir narsa yoki holat haqida yozar ekan, hukm chiqarmaydi, balki o‘sha narsa yoki holatning shunday bir jihatini tasvirlaydiki, natijada o‘quvchi u to‘g‘risida asosli to‘xtamga keladi. Masalan, muallifning Samarqand to‘g‘risidagi qaydlari bilan tanishaylik. U shaharni o‘rab turgan qo‘rg‘onning kattaligini ta’riflab o‘tirmaydi-da: “...buyurdimkim, qadam urdilar, o‘n ming olti yuz qadam chiqdi” deyishi bilan mazkur qo‘rg‘on haqida ma’lum to‘xtamga kelish imkonini o‘z o‘quvchisiga qoldiradi. Bu bilan tasvirning xolislik darajasini oshiradi. O‘qituvchi Bobur uchun Samarqand hamisha qo‘l etmas orzu bo‘lganini, bu shaharni necha bor qo‘lga kiritib, necha bor topshirgani, nihoyat uning yurtidan chiqib ketishiga ham bundagi mag‘lubiyati sabab bo‘lgan esa-da, muallif shaharning eli haqida ehtirom bilan yozganiga diqqat qaratishi kerak.

Bobur o‘z nasriy tasvir uslubiga muvofiq yo‘sinda Samarqandni tasvirlash asnosida ham bu yerda boshqa joylardan yaxshiroq rivojlangan biror hunar yoki meva haqida alohida to‘xtaladi. Chunonchi Samarqand olmasi va uzumining beqiyosligini, bozorlarining o‘ziga xosligini, novvoylik va oshpazlik rivoj topganligini o‘rinli qayd etadi. Uning “Olamda yaxshi qog‘oz Samarqanddan chiqar. Juvozi kog‘ozlar suyi tamom Konigildin keladur”, - deya bergan ma’lumoti samarqandliklar hanuzga qadar saqlab kelayotgan qadriyatlarning ildizlari nechog‘lik qadimiy ekanligini ko‘rsatadi. Bobur o‘ta sinchkov olim sifatida Samarqandga xos ayrim jihatlarni boshqa shaharlarniki bilan solishtirish usulidan ham foydalanadi. Jumladan, Samarqand qishining qattiqligini ta’kidlar ekan, qori Kobul shahridagiday qalin bo‘lmasligini, yozda havo yaxshi bo‘lishini aytar ekan, Kobul bahavoroq ekanini ta’kidlaydi.

Samarqandda sakkiz bog‘ borligi va har bir bog‘ning o‘rni haqidagi ma’lumotlar, shahar atrofidagi o‘lang – o‘tloqlar tasviri, Amir Temur, Mirzo Ulug‘beklar tomonidan qurdirilgan oliy imoratlarga xos xususiyatlar to‘g‘risidagi bitiklar faqat ilmiy qimmatga emas, balki muayyan badiiy salmoqqa egaligi o‘quvchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Ba’zan “Boburnoma” yuzasidan

olib borilayotgan mashg'ulotlar to'liq jo'g'rofiy qiyofa kasb etadikim, bundan saqlanish kerak. Chunki adabiyot darslari uchun "Boburnoma"da aks etgan joylar xaritasini chizgandan ko'ra muallif yoki biror tarixiy shaxsning tabiatini aks ettiradigan, sezimlarini ifodalaydigan jihatlarni payqash va izohlash muhimroq. Ba'zi o'qituvchilar fanlararo integratsiya deyilganda ikki va undan ortiq fanlarni bir darsda o'qitilishi deb tushunadilar. Aslida aksar hollarda bu o'qituvchining o'z fanini o'qitishda, o'z didaktik maqsadini amalga oshirishda boshqa fanlar imkoniyatlari, ma'lumotlari, ilmiy xulosalaridan foydalanishdan o'zga narsa emas. Shuning uchun asarni o'qita turib jo'g'rofiya, tarix, botanika, biologiya fanlariga doir ma'lumotlarni berishni emas, aksincha, ulardagi ma'lumotlar "Boburnoma"ni atroflicha tushunilishiga xizmat qilishi kerak.

"Boburnoma" asaridan olingan parchalar asosida memuar – yodnoma asarlarga xos xususiyatlar, ularning badiiy va ilmiy asarlarga o'xshash hamda farqli tomonlari to'g'risida nazariy ma'lumot beriladi. Unda turkiy memuar adabiyotga Bobur asos solgani, uning dunyo yodnoma adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida to'xtaniladi. Memuar asar ilmiy-tarixiy asarlardan unda tasvirlangan voqealarga muallifning o'zi bevosita ishtirok etgan yoki guvohi bo'lgan kechmishlari aks ettirilgani bilan farqlanadi. Muallif shaxsiyati qanchalik baland bo'lsa, uning bitganlari boshqalarni shunchalik o'ziga rom etadi. O'qituvchi "Boburnoma"ni shu jihatdan tekshirishni o'quvchilarga topshirsa, ular oldiga muammoli vaziyat qo'ygan bo'ladi va darsning samaradorligi oshadi.

Adabiyot o'qituvchisi "Boburnoma"ga asosan badiiy yodgorlik sifatida yondashishi, uning estetik qimmatga ega jihatlariga e'tibor qaratishi lozim. Bitiruvchi sinf o'quvchilari badiiy va ilmiy asarlar orasidagi farqni tushunadilar. Ularda badiiy obraz va obrazli ifoda borasida muayyan tushunchalar shakllangan. Ular "Boburnoma"ni o'rganish jarayonida undagi badiiy jihatlarni topa biladilar.

Ta'lim tizimida Bobur ijodini o'rganish ulkan ta'limiy, ma'rifiy ahamiyatga ega. Bu buyuk insonning shaxslik sifatleri, ijod namunalariidan kelib chiqadigan mohiyat yoshlarimiz uchun "har kuni, har soatda fidoiy bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz

safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish”dek ma’naviy qahramonlik namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Ana shunday ma’naviy jasorat namunalari misolida tarbiyalangan avlod ertaga buyuk kelajakni o‘z qo‘li bilan yarata olishi muqarrardir.

**JVXTXQTMOI “Til va adabiyot ta’limi” kafedrası o’qituvchisi Abdullayev
Akmalning Paxtakor tumanidagi 6-maktab ona tili va adabiyot fani
o’qituvchisi Namazov Abduraimning ish tajribalari asosida “Izohli
lug’atlardan foydalanish orqali o’quvchilarda mumtoz adabiy matnlar bilan
ishlash malakalarini shakllantirish” mavzusidagi metodik tavsiyanomasiga**

T A Q R I Z

O’qituvchilik kasbi boshqa turdagi kasblardan farqli o’laroq, o’quvchi-yoshlarni davr talablari asosida tarbiyalash barobarida, o’zi ham doimiy ravishda zamonaviy bilimlarni egallab, shaxsiy va kasbiy fazilatlarini o’quvchilarga singdirib borishi lozim. Bizningcha, ona tili va adabiyot darslarining samaradorligini ko’tarish uchun dars davomida o’qitishning zamonaviy shakllaridan unumli va to’g’ri foydalanish kerak.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo’yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o’quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko’nikma va malakalarni xosil qilish, shuningdek, o’quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko’nikma hamda malakalar darajasini baholash o’qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi

Namazov Abduraimning barcha sa’y-harakatkatlari ana shu muhim talablarga qaratilgan. O’qituvchi dars jarayonida bilim berishning yangicha metodlaridan foydalanishga harakat qilib, o’quvchilarning o’quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba to’plagan. Ushbu metodik tavsiyanomada adabiyot fanida mumtoz adabiy matnlar bilan ishlashda izohli lug’atlardan foydalanish, mumtoz adabiyot namunalarini o’rganish bo’yicha o’ziga xos individual uslubiy tavsiyalar hamda uyardan foydalanish haqida so’z boradi.

Ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari ushbu tavsiyanomada keltirilgan metodlardan dars samaradorligini oshirishda foydalanishlari mumkin.

**Jizzax shahar XTMFMT va TEBga qarashli
10-sonli umumta’lim maktabi oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi:**

R.Toshpo’latova

**JVXTXQTUMOI “Til va adabiyot ta’limi” kafedrası o’qituvchisi Abdullayev
Akmalning Paxtakor tumanidagi 6-maktab ona tili va adabiyot fani
o’qituvchisi Namazov Abduraimning ish tajribalari asosida “Izohli
lug’atlardan foydalanish orqali o’quvchilarda mumtoz adabiy matnlar bilan
ishlash malakalarini shakllantirish” mavzusidagi metodik tavsiyanomasiga
T A Q R I Z**

Ma’lumki, ona tili va adabiyotni o’qitishning bosh maqsadi o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini o’stirishdan iborat. Shu bois o’qituvchi barcha sa’y-harakatni ana shu bosh maqsadga qarata olib boradi. Darsning har bir bosqichi, har bir daqiqasi o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini o’stirish, o’rganilgan so’z va iboralarni o’z ona tilida to’g’ri talaffuz etishga, leksik birliklarni, grammatik qoidalar asosida to’g’ri qo’llab to’g’ri jumlar tuzishga qaratadi. O’qituvchi dars jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, o’quvchilarning intellektual salohiyatini ham yuksaltirib borish maqsadida turli boshqotirmalar, krossvord, so’z o’yinlaridan foydalanadi.

Ona tili va adabiyot darslarida o’quvchilarning bilim olish yo’lidagi faolligini oshirish ham, avvalo, fanni chuqur o’rganishga bo’lgan ehtiyojni uyg’otish, ularda tilga nisbatan kuchli qiziqishni vujudga keltirish, darsda har ikkala subyekt – o’qituvchi va o’quvchilarning ta’lim maqsadiga muvofiq keladigan faoliyatini tashkil etish, o’quvchilarda til materiallarini chuqur o’rganish uchun zarur bo’lgan ko’nikma va malakalarini shakllantirish kabilar bilan chambarchas bog’liqdir.

O’qituvchi har bir darsida fanlararo bog’lanishga, pedagogika va metodikada yaratilayotgan yangiliklarni olib kirishga alohida etibor beradi. Iste’dodli muallim doimiy ijodiy izlanishda. Maktab, tuman metod birlashma yig’ilishlarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bo’yicha o’z takliflari bilan faol ishtirok etib kelmoqda. O’quvchilar bilimni oshirish, ularning fan asoslarini chuqur o’zlashtirishlarida zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsion usullardan samarali foydalanadi.

Ushbu metodik tavsiyanomadan umumta’lim maktablarining ona tili va adabiyot o’qituvchilari o’z pedagogik faoliyatida o’quvchilarining iqtidori va qiziqishlarini o’stirishda, maktadagi mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda to’g’ri va unumli foydalanadilar degan umiddamiz.

**“Til va adabiyot ta’limi ”
kafedrası katta o’qituvchisi:**

Q.Siddiqov